2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 119 (1718), 2026-yil 13-iyun, shanba

www.yuz.uz | yuz.uznews | yuz_official | yuz.uz_news | yuz.uz_news

## Prezidentga maktub

# SAMIMIY MINNATDORLIK

*Ma’lumki, keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan inson qadrini ulug‘lash, uning huquq va manfaatlarini ta’minlash mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Buning amaliy tasdig‘ini barcha soha va tarmoqlarda, jumladan, diniy hayotimizda ham yaqqol ko‘rish mumkin.*

*Bu haqda so‘z yuritganda, joriy yilda muqaddas haj safariga yo‘l olgan 15 mingdan ziyod fuqarolarimiz safida yana yuz nafar yurtdoshimiz davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan tariximizda birinchi marta “Prezident hojilari” sifatida ana shunday qutlug‘ ziyoratni amalga oshirish imkoniga ega bo‘lganini ta’kidlash lozim.*

*Xalqimizning ulug‘ farzandi, mashhur olim va diniy ulamo, shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining rafiqasi Fotimaxon aya Ismoil Maxdum qizi ham ana shunday sharafga muyassar bo‘ldi. Quyida muhtarama hoji onaning davlatimiz rahbariga yo‘llagan minnatdorlik xati e’tiboringizga havola qilinmoqda.*

**Assalomu alaykum,
muhtaram Prezidentimiz!**

Avvalo, butun hayotini islom dini ravnaqiga bag‘ishlab, shu yo‘lda el-yurtimizga sidqidildan xizmat qilgan fazilatli shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining mashaqqatli, ayni paytda sharafli mehnatlarini doimo munosib qadrlab, yuksak e’tirof etib kelayotganingiz uchun u zotning oilasi, farzand va nabiralari nomidan Sizga chuqur minnatdorlik bildirishga ruxsat bergaysiz.

Biz sizning timsolingizda kechayu kunduz el-yurt tashvishi, farzandlarimiz kelajagini o‘ylab yashaydigan, yuksak irodali, oqil va donishmand, xalqparvar rahbarni ko‘ramiz.

Ayniqsa, hazratimizning vafoti tufayli boshimizga tushgan og‘ir judolik kunlarida ko‘rsatgan insoniy mehr va e’tiboringizni hech qachon unutmaymiz. U kishini xotirlab aytgan samimiy so‘zlaringiz, muhtasham masjid-majmua barpo etib, unga shayx janoblarining muborak nomini berganingiz, bu masjid faoliyatini boshqarishdek g‘oyat sharafli vazifani padari buzrukvori boshlagan ishni davom ettirsin deya farzandimga topshirganingizdan boshimiz osmonga yetdi, o‘ksigan dilimiz taskin topdi.

Bunday yuksak e’tibor va e’tirofingiz uchun yana bir bor tashakkurlar deymiz!

Alloh taolo marhamat qilib aytganidek, yaxshilikning mukofoti faqat yaxshilik bo‘lgay, inshoolloh.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarini 2023-yilda “Oliy darajali Imom Buxoriy” ordeni bilan mukofotlaganingizni ham biz Sizning haqqingizga cheksiz duolar qilib, ko‘zimizda quvonch yoshlari bilan kutib oldik.

Hazratimizga yaqin tariximizdagi g‘oyat murakkab davrda sobiq ittifoq hududidagi musulmonlar uchun haj va umra safari eshiklarini ochish sharafi nasib qilgan edi. Oradan yillar o‘tib, Siz, muhtaram Prezidentimizning sa’y-harakati bilan bu muborak safar yo‘lidagi barcha cheklovlar olib tashlandi. Mana, endi ming-minglab vatandoshlarimiz haj va umra ziyoratiga emin-erkin borib kelmoqda.

Bu yil yana bir yuksak e’tiborga sazovor bo‘ldik — Prezident hojilari safida kelinim bilan birga haj ziyoratini ado etib keldik.

Muhtaram Prezident, biz bunday marhamatni ulug‘ hazratimizga, iymon-e’tiqodli va zahmatkash xalqimizga, muqaddas dinimizga ko‘rsatilgan hurmat-ehtirom ifodasi, insonni qadrlash va e’zozlashning oliy namunasi deb bilamiz.

Alloh taolo shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlariga, u kishining ahli baytlariga, yurtimizdagi barcha mo‘min-musulmonlarga qilgan bu ulug‘ himmatingizni dargohida husni qabul aylasin! Bunday olijanob ishlar sharofati bilan hajga borgan har bir yurtdoshimizning barcha solih amallari uchun yozilgan ajru savoblardan, avvalo Sizni, rahmatli ota-onangizni, ustozlaringizni, barcha o‘tgan azizlaringizni, bugun Sizga doimo tayanch bo‘lib kelayotgan ahli oilangizni, avlod-u zurriyotlaringizni ham bahramand qilsin!

Parvardigori olam Siz va Siz boshchiligingizdagi el-yurt ishiga kamarbasta barcha insonlarning Vatan uchun, millat uchun, dini islom uchun qilayotgan xayrli ishlaringizda O‘zi doim madadkor bo‘lsin!

Sizga mustahkam sog‘liq, ulkan kuch-g‘ayrat, oilangiz, xalqimiz bilan birga barcha ezgu maqsadlaringizning ro‘yobini ko‘rish nasib etishini tilab qolaman!

Alloh taolo dunyo va oxiratda yuzingizni yorug‘ qilsin, O‘zining roziligi yo‘lidagi buyuk xizmatlaringizdan keladigan obro‘-e’tibor va yaxshiliklarni ziyoda etsin!

Kamoli ehtirom ila,

**Fotimaxon aya
Ismoil Maxdum qizi**

## 15-iyun — Shanxay hamkorlik tashkiloti tashkil topgan kun




# SHHT BIRDAMLIGI – BEPOYON MINTAQADA TINCHLIKNI SAQLASH KALITI

**Inson qadri jamiyat rivojining eng muhim negizi sifatida azal-azaldan e’tiborga molik jihat bo‘lib kelgan. Aynan shu ulug‘vorlik har qanday davlatning bosh masalasi, har qanday xalqaro tashkilot darajasini belgilaydigan asosiy mezondir. Aynan inson qadri ulug‘langan yurtda buyuklik andozasi hisoblanmish tinchlik va farovonlik barqaror bo‘lib qolaveradi.**



Dunyoning qay bir burchagida yuz bergan ixtilof, ba’zi davlatlar o‘rtasidagi kelishmovchilik, gohida sodir etilgan harbiy to‘qnashuvlar ham inson ulug‘vorligini parokanda qila olmagan. Hattoki o‘tgan asrning tajovuzkor silsilalari bo‘lmish Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari ham insoniyat qadri oldida ojiz qolgani bugun sir emas.

Inson qadri tamomila yo‘q bo‘lib ketmasligi haq gap. Shu bilan birga, inson komilligiga xos bo‘lmagan har qanday illat, ko‘ngil rishtalarini buzuvchi har qanday razillik o‘zining salbiy izlarini qoldirishi tabiiy.

Ilm-fan rivoji, texnik taraqqiyot yuksak cho‘qqilarni zabt etgan yigirma birinchi asrning ham chorak qismi ortda qoldi. Inson aql-zakovati ulug‘vorlik kasb etishini, olam sirlarini inson ongiga moslashtirishni har qadamda kuzatish qiyin emas.

Shu bilan birga, bugungi kunda dunyo murakkab va chuqur o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Jahonning turli nuqtalarida qurolli mojarolar yuz bermoqda.

Davlatlar o‘rtasidagi qarama-qarshilik, sanksiyaviy bosim kabi yangicha tajovuzlar beqarorlik va noaniqlikka sabab bo‘lmoqda. Xalqaro siyosiy va iqtisodiy tartib go‘yoki buzilish sari yuz tutgan.

Murakkab geosiyosiy o‘zgarishlar yuz berayotgani deyarli har bir davlat miqyosida ochiq-oydin aks etmoqda. Davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonchsizlik tobora chuqurlashmoqda. Natijada xavfsizlikka tahdid, tashqi ta’sirning ortishi, imkoniyatlar tengsizligi va qashshoqlik tobora avj olmoqda.

Keyingi yuz yillikda bir-biri bilan chambarchas bog‘lanib ketgan dunyo muvozanatini saqlab qolish, mushtarak qadriyat va ne’matlar yemirilishining barvaqt oldini olish, inson ulug‘vorligini asrab-avaylash masalasi har qachongidan ham ko‘proq ahamiyat kasb etmoqda.

Oldindan bashorat qilish murakkab bo‘lgan bu tarzdagi global siyosiy-iqtisodiy jarayonlarda davlatlararo yangi yo‘sindagi xalqaro tashkilotlarga ehtiyoj sezilishi tabiiy.

Ichki strategik vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishda xalqaro omillarning ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Davlatlarning ichki va tashqi siyosatida o‘zaro bog‘liq jihatlar namoyon bo‘la boshladi. Bu esa, o‘z navbatida, har bir davlatni milliy rivojlanish uchun qulay xalqaro muhitni shakllantirishda o‘zining bevosita ishtirokini kuchaytirishga imkon beruvchi yo‘llarni izlashga undamoqda.

Davomi 3-betda

## Kun mavzusi

# V TOSHKENT XALQARO INVESTITSIYA FORUMI

## MUHIM IQTISODIY TADBIRGA SANOQLI FURSAT QOLDI

TASHKENT INTERNATIONAL INVESTMENT FORUM

**Toshkent shahri nafaqat mamlakatimiz, balki Markaziy Osiyoning yirik iqtisodiy markazi, ishbilarmonlar to‘planadigan manzillardan biriga aylanib bormoqda. Xalqaro formatdagi biznes uchrashuvlar, qator tadbir va ko‘rgazmalar sabab xorijliklar poytaxtimizning doimiy mehmoniga aylangan. Shu kunlarda mamlakatimiz iqtisodiy hayotidagi yana bir yirik anjuman — Toshkent xalqaro investitsiya forumiga tayyorgarlik ishlari qizg‘in va hal qiluvchi pallaga kirdi.**

Beshinchi bor o‘tkazilayotgan forum bu yil qaysidir ma’noda kichik yubileyini nishonlaydi. Shu munosabat bilan poytaxtimiz joriy yilning 16-18-iyun kunlari nufuzli xorijlik mehmonlar, yirik investor va ekspertlar, xalqaro moliya institutlari rahbarlarini kutib olishga tayyorlanmoqda.

Investitsiya forumiga qiziqish nihoyatda yuqori. Buni xorijlik mehmonlar ko‘lami ham tasdiqlaydi.

Davomi 2-betda

## Prezident qarorlari – hayotda va nazoratda




# RAQAMLI YECHIMLAR, IJRO INTIZOMI – YUQORI SAMARADORLIK GAROVI



**Avvalo, bugungi o‘zgarishlar va tub islohotlar zamirida Prezidentimizning tashabbuskorligi, ochiq va shaffof davlat siyosati, “inson — jamiyat — davlat” tamoyiliga asoslangan “Barchasi inson qadri uchun” degan ezgu g‘oyasi mujassam.**

Soliq tizimiga ham aholi manfaatlari, soliq to‘lovchilarga qulayliklar yaratish uchun mahallabay va korxonabay ishlash prinsiplari joriy etilgan. Asosiy maqsad aholi va tadbirkorlik subyektlarining muammolarini hal etish, davlat xizmatchilari bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot qilish imkoniyatini yaratishdan iborat.

Islohotlar samaradorligi va belgilangan maqsadlarga erishishning natijadorligi bevosita har bir tashkilotda mustahkam ijro intizomi yo‘lga qo‘yilganiga bog‘liq. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni davlat idoralari va tashkilotlarida ijro intizomini yanada mustahkamlashda muhim huquqiy hujjatdir.

Mazkur hujjat bilan ijro intizomini mustahkamlash, yagona va uzluksiz “texnologik zanjir”ni tashkil qilish bo‘yicha barcha darajadagi boshqaruv organlari rahbarlari shaxsan e’tibor qaratishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Shuningdek, davlatimiz rahbarining 2021-yil 31-maydagi “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijro intizomini mustahkamlash yo‘lida muhim dasturilamal hujjat bo‘ldi. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar qog‘ozda emas, amalda natija berishi kerak.

Davomi 4-betda

# QAT’IY JAZO VA SOG‘LOM KELAJAK HIMOYASI

## YOXUD GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHDA YANGI BOSQICH

### Sharh

**Giyohvandlik insoniyat duch kelayotgan eng xavfli ijtimoiy ofatlardan biri hisoblanadi. Bu illat bir qarashda alohida insonning muammosidek ko‘rinsa-da, aslida, uning oqibatlari butun jamiyatga ta’sir ko‘rsatadi. Zero, giyohvandlik inson salomatligini yemiribgina qolmay, oilalarni parokanda qiladi, yoshlarning orzu va maqsadlarini barbod etadi, jinoyatchilikning o‘sishiga sabab bo‘ladi va mamlakatning intellektual hamda demografik salohiyatiga jiddiy zarar yetkazadi.**

Bugungi globallashuv sharoitida giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasi transmilliy jinoyatchilikning eng xavfli ko‘rinishlaridan biriga aylanib bormoqda. Ayniqsa, sintetik giyohvandlik vositalarining paydo bo‘lishi va internet orqali tarqatish usullarining kengayishi bu tahdidni yanada kuchaytirmoqda. Shu sababli dunyoning ko‘plab davlatlari qatorida O‘zbekiston ham narkojinoyatchilikka qarshi kurashish siyosatini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Davlatimiz rahbari 2026-yil 11-iyunda imzolagan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki ularning analoglarining va kuchli ta’sir qiluvchi moddalarning qonunga xilof muomalasi uchun javobgarlikni takomillashtirishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun ana shu ehtiyoj va zamon talabidan kelib chiqqan holda ishlab chiqildi. Mazkur qonun giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish bo‘yicha huquqiy mexanizmlarni tubdan takomillashtirib, davlatning bu sohadagi qat’iy pozitsiyasini yana bir bor namoyon qildi.

Qonunning eng muhim yangiliklaridan biri Jinoyat kodeksida “Aholi salomatligi va genofondiga qarshi jinoyatlar” deb nomlangan alohida bobning tashkil etilganidir.

Davomi 2-betda

# V TOSHKENT XALQARO INVESTITSIYA FORUMI

## MUHIM IQTISODIY TADBIRGA SANOQLI FURSAT QOLDI

Boshlanishi 1-betda

Shu yilning 9-iyun kuni davlatimiz rahbariga Toshkent xalqaro investitsiya forumiga tayyorgarlik yuzasidan berilgan axborotda aytilishicha, kelasi hafta bo‘lib o‘tadigan yirik anjumanda dunyoning 99 mamlakatidan jami 8 mingdan ziyod ishtirokchi, jumladan, qariyb 3,1 ming xorijiy mehmon qatnashishi kutilmoqda.

Bu o‘tgan besh yil ichida forumga qiziquvchilar soni bir necha barobar oshganini ko‘rsatadi. Chunki forum 2022-yilda ilk bor o‘tkazilgan vaqtda 56 mamlakatdan mingdan ziyod chet ellik mehmon ishtirok etgan. Bu gal esa ularning soni ancha ko‘p. Taklif etilganlar orasida xorijiy davlatlar hukumatlari rahbarlari va vakillari, nufuzli xalqaro moliya institutlari, yirik kompaniyalar, investitsiya jamg‘armalari va ishbilarmon doiralar yetakchilari bor. Ularning aksariyati dolzarb mavzulardagi ma’ruzalari bilan qatnashadi. Mehmonlar allaqachon forumda ishtirok etishga hozirlik ko‘rib, mamlakatimizni ushbu muhim tadbir bilan qutlamoqda.

— Toshkent xalqaro investitsiya forumida yana bir bor ishtirok etishimdan g‘oyat mamnunman, — deydi Germaniyadagi “KfW IPEX Bankning” kompaniyasining Sharqiy Yevropa, Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz mintaqasi bo‘yicha direktori Yekaterina Galitsina. — Bu gal forumda “Tadbirkorlikda ayollar: gender tenglikka asoslangan inklyuziv o‘sishning iqtisodiy samarasi” mavzusidagi panel sessiyasida ma’ruzachi sifatida ishtirok etaman. Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda gender omillarini hisobga olgan holda investitsiya kiritish rivojlanib boryapti. Shu bilan birga, sessiyalar doirasida rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda ayollar tadbirkorligi yo‘lidagi to‘siqlar va ularni bartaraf etish, xotin-qizlarning moliya resurslaridan foydalanishi, biznesni kengaytirish kabi masalalar tahlil qilinadi. Toshkent xalqaro investitsiya forumi shu kabi dolzarb mavzularda fikr almashish, yangi g‘oya va loyihalarni ishlab chiqish, innovatsion tashabbuslarni ilgari surish uchun yuqori darajadagi platforma hisoblanadi. Forum har yili dunyoning turli mamlakatlari va sohalarida faoliyat yuritayotgan yirik vakillar va investorlarni bir nuqtaga jamlayotganiga guvoh bo‘lyapmiz.

Forum doirasida investitsiya kelishuvlarini imzolash boshlanishi kutilmoqda. Undan global bozor tendensiyalari, investitsiyalarni jalb etishning yangi mexanizmlari va istiqbolli mintaqalararo loyihalar muhokamasiga bag‘ishlangan sessiyalar, panel muzokaralar, davra suhbatlari o‘rin olgan. Xususan, forum doirasida yalpi majlis, ikki tomonlama uchrashuvlar, tarmoq va hududlar taqdimotlari,




investitsiya kelishuvlarini imzolash marosimlari o‘tkaziladi.

O‘tgan yili ilk bor tashkil etilgan Milliy investitsiya ko‘rgazmasi bu yil ham dasturdan joy olgan. Unda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi, yengil sanoat, geologiya, elektrotexnika

Germaniyadagi “ECM Group” kompaniyasining biznesni rivojlantirish bo‘yicha mintaqaviy direktori Dmitriy Fedunyan. — Ko‘p yillardan buyon O‘zbekiston bozoriga qiziqamiz va 2022-yilda nihoyat Toshkent shahrida o‘z ofisimizni ochishga erishdik. Faoliyatimiz davomida O‘zbekistondagi shaharsozlik, aeroportlar, sog‘liqni saqlash hamda turizm infratuzilmasi bilan bog‘liq qator qiziqarli loyihalarda ishtirok etib kelyapmiz. Bu biz uchun katta imkoniyat va tajribadir. Ushbu ajoyib diyorni katta iqtisodiy salohiyatga ega deb bilamiz. Ayni jihatlar xorijlik investorlarni ham mamlakatga faol jalb etib, ishonchini oshirmoqda. Shu bilan birga, xalqaro moliyaviy institutlar mamlakatda investitsiya dasturlarini kengaytiryapti. Toshkent xalqaro investitsiya forumi bu yil yanada ko‘proq investorlarni bir nuqtada jamlashi shubhasiz. Anjuman allaqachon Markaziy Osiyodagi eng muhim biznes maydonlardan biriga aylangan. Mazkur yirik forumda kreativ industriya va madaniy iqtisodiyot rivojiga bag‘ishlangan panel sessiyada ishtirok etayotganimdan xursandman. Unda soha vakillari bilan birgalikda ko‘p trillion dollarlik kapitallashuvga ega global kreativ bozorda institutsional hamkorlik istiqbollarini tahlil qilamiz. Qolaversa, mamlakatdagi biznes faoliyatimizni yanada rivojlantirish uchun yangi

> **Xorijlik sarmoyadorlarning aksariyati shunday, hamkorlik ko‘lamini oshirishga qiziqishi baland. Bu esa jahon maydonida yurtimiz investitsion imkoniyatlariga ishonch ortib borayotganidan dalolat. Shu jihatdan xalqaro forum nafaqat dunyoning turli nuqtasidagi sarmoyadorlar, balki ularning g‘oyalari, taklif va tashabbuslarini ham birlashtiradi.**

Haqiqatan, ushbu xalqaro investitsiya forumi birinchi yilning o‘zidayoq yurtimizning investitsiyaviy salohiyatini keng namoyon etish, xorijiy sheriklar bilan o‘zaro manfaatli loyihalarni shakllantirish hamda ilgari surish, qolaversa, jahonning nufuzli kompaniyalarini bir yerda jamlash maydoniga aylandi. Bugun esa unga qiziqish yanada yuqori. Chunki endi chet elliklar yurtimizning investitsion imkoniyatlari bilan tanish, shu bois, ularni yangi O‘zbekistonning iqtisodiy salohiyati, rivojlanish yo‘lidagi imkoniyatlari, taklif etayotgan tashabbuslari, qolaversa, mahalliy va xorijlik ishbilarmonlar uchun yaratilgan sharoitlar tobora ko‘proq qiziqtirmoqda.

Ana shu tashabbuslar xalqaro forum maydonida yangi hamkorlik aloqalari, faol kelishuvlarga aylanadi. Muloqotlar turli formatdagi tadbirlar, ko‘rgazma va biznes uchrashuvlar, sessiyalar doirasida kechadi. Odatda forumning ish jadvali zich bo‘lib, tadbirlar bir vaqtning o‘zida turli manzillarda o‘tkaziladi. Har biri xorijlik investorlar, mahalliy va chet ellik biznes doira vakillarini jamlaydi.

O‘zbekiston Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining ma’lum qilishicha, joriy yilgi dastur nihoyatda sermazmun va amaliy ahamiyatga ega sanoati, mashinasozlik, kimyo sanoati, energetika, sun’iy intellekt va axborot texnologiyalari tarmoqlarining imkoniyatlari namoyish etilishi rejalashtirilgan. Xorijlik investorlar kattagina ko‘rgazma pavilyonida milliy mahsulotlarimiz bilan bevosita tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu yurtimiz sanoati, ishlab chiqarish quvvatlari, mahalliy bozorni bir manzilda, kengroq o‘rganish uchun qulay sharoit yaratadi.

Boisi, investorlarning aksariyati yirik kompaniyalar, xalqaro brendlar rahbarlari, jahon bozorining yetakchi ishlab chiqaruvchilari sanaladi. Ular forumga shunchaki qiziqishdan ko‘ra, aniq taklif va loyihalar bilan yangi hamkorlar topish maqsadida kelayotgani shubhasiz. Har yili imzolanayotgan biznes bitimlar buning yaqqol isboti. O‘tgan yilgi forum yakunlari bo‘yicha erishilgan hamkorlik kelishuvlarining umumiy qiymati 30 milliard dollarga yetgandi. Bugungi kunda mazkur loyihalar faol amalga oshirilib, barcha sohalar rivojida yetakchi o‘rin tutmoqda.

— Muhandislik kompaniyamiz arxitektura va muhandislik loyihalash, loyiha boshqaruvi, konsalting hamda bosh reja ishlab chiqish bo‘yicha xizmatlarni ko‘rsatadi, — deydi hamkorlik kelishuvlariga erishishni rejalashtirganmiz.

Xorijlik sarmoyadorlarning aksariyati shunday, hamkorlik ko‘lamini oshirishga qiziqishi baland. Bu esa jahon maydonida yurtimiz investitsion imkoniyatlariga ishonch ortib borayotganidan dalolat. Shu jihatdan xalqaro forum nafaqat dunyoning turli nuqtasidagi sarmoyadorlar, balki ularning g‘oyalari, taklif va tashabbuslarini ham birlashtiradi.

Forum doirasida investitsiya kelishuvlarining yirik to‘plami imzolanishi kutilyapti. Hozirdanoq yangi loyihalarni shakllantirish ishlari ketmoqda. Ular iqtisodiyotning deyarli barcha tarmog‘i, xususan, yengil sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish va infratuzilma, raqamli texnologiyalar, bank-moliya, transport-logistika, turizm, ta’lim yo‘nalishlarini qamrab oladi. Imzolanadigan loyihalarning amalga oshirilishi esa mamlakat iqtisodiyoti rivoji, hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirib, yangi ish o‘rinlari yaratish, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga xizmat qiladi.

**Iroda TOSHMATOVA,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

# QAT’IY JAZO VA SOG‘LOM KELAJAK HIMOYASI

## YOXUD GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHDA YANGI BOSQICH

Boshlanishi 1-betda

Bu huquqiy yondashuv giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlarga mutlaqo yangi baho berilayotganini ko‘rsatadi. Endi mazkur qilmishlar faqat jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyat sifatida emas, balki millat salomatligi va kelajak avlod taqdiriga qarshi tahdid sifatida baholanmoqda.

Mazkur bobga avvaldan mavjud bo‘lgan 16 ta modda bilan bir qatorda, aholi salomatligiga o‘ta xavfli bo‘lgan yangi jinoyat tarkiblari ham kiritildi. Bu esa giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq jinoyatlarga qarshi kurashish davlat siyosatida alohida ustuvor ahamiyat kasb etayotganini anglatadi.

So‘nggi yillarda sintetik giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq jinoyatlar soni ortib borayotgani kuzatilmoqda. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, bugungi kunda tarqalayotgan ko‘plab sintetik giyohvandlik vositalari aynan yashirin narkolaboratoriyalarda tayyorlanmoqda.

Ma’lumotlarga ko‘ra, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan faqat so‘nggi to‘rt oyning o‘zida mamlakat hududida 14 ta narkolaboratoriya faoliyati fosh etilgan. Bu raqamning o‘ziyoq xavfning ko‘lamini ko‘rsatib turibdi.

Shu munosabat bilan qonunchilikka g‘ayriqonuniy narkolaboratoriya tashkil etish va uning faoliyatini ta’minlaganlik uchun alohida jinoiy javobgarlik kiritildi. Bunday qilmishlar uchun 5 yildan 20 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilandi.

Bu norma narkotiklarni tarqatuvchilarga emas, balki ularni ishlab chiqaruvchi va jinoiy zanjirning asosiy bo‘g‘inini tashkil etuvchi shaxslarga qarshi kurashish imkonini beradi.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, yirik narkojinoyatlar ayrim hollarda korrupsion omillar bilan bog‘liq bo‘ladi. Ayrim mansabdor shaxslarning xizmat vakolatlaridan foydalanib, jinoyatchilarga ko‘maklashishi yoki ular haqidagi ma’lumotlarni yashirishi jamiyat uchun ikki karra xavf tug‘diradi.

Shu sababli qonun bilan mansab vakolatlarini suiiste’mol qilish orqali giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga homiylik qilish, rahnamolik qilish yoki bunday jinoyatlar fosh bo‘lishining oldini olish maqsadida oldindan xabar berish uchun ham



**Zuhriddin MAVLONOV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati**

5 yildan 20 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilandi.

Bu davlatning giyohvandlik vositalari biznesi bilan bog‘liq har qanday korrupsion munosabatlarga nisbatan murosasiz siyosat yuritayotganini anglatadi.

Giyohvandlikning tarqalishida bangixonalar alohida o‘rin tutadi. Bunday joylar nafaqat giyohvandlik vositalari iste’mol qilinadigan muhit, balki yangi iste’molchilar jalb qilinadigan va boshqa jinoyatlar sodir etiladigan xavfli nuqtalar hisoblanadi.

Qonun bilan giyohvandlik vositalari yoki kuchli ta’sir qiluvchi moddalarni iste’mol qilish va tarqatish uchun bangixona tashkil qilish yoki saqlash uchun 3 yildan 12 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutildi. Bu orqali narkotiklar tarqalishi uchun sharoit yaratayotgan shaxslarga qarshi ta’sirchan huquqiy to‘siq yaratilmoqda.

Giyohvandlikning eng og‘ir oqibatlari, avvalo, yoshlar hayotida namoyon bo‘ladi. Narkotik moddalar ta’siriga tushib qolgan yosh ko‘pincha ta’limdan uzoqlashadi, mehnat bozorida raqobatbardoshligini yo‘qotadi va jinoyatchilik muhitiga kirib qoladi. Shuning uchun ham yangi qonunda yoshlar va voyaga yetmaganlarni himoya qilishga alohida e’tibor qaratildi.

Endilikda voyaga yetmagan shaxsni kuchli ta’sir qiluvchi moddalarni iste’mol qilishga jalb etganlik uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri jinoiy javobgarlik belgilandi.

Bundan tashqari, ta’lim muassasalari, talabalar yotoqxonalari, bolalar oromgohlari yoki ularga tutash hududlarda narkotik yoki kuchli ta’sir qiluvchi moddalarni iste’mol qilishga jalb etganlik uchun 5 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi joriy etildi.

Qonun bilan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga ham muhim o‘zgartish kiritildi. Endilikda giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki kuchli ta’sir qiluvchi moddalarni jamoat joylarida iste’mol qilganlik uchun 15 sutkagacha ma’muriy qamoq jazosi belgilandi.

Chunki aholi ko‘z o‘ngida narkotik moddalar iste’mol qilinishi boshqalarga, ayniqsa, yoshlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu esa g‘ayriijtimoiy xulq-atvorning ommalashishiga sabab bo‘ladi.

Tahlillar so‘nggi yillarda narkojinoyatlar bo‘yicha takroriy huquqbuzarliklar ko‘payganini ko‘rsatmoqda. Ayrim hollarda mahkumlar jazo muddatining yarmidan ham kam qismini o‘tab, ozodlikka chiqqan va qisqa vaqt ichida yana jinoyat sodir etgan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi to‘rt yil davomida narkojinoyatlarni takroran sodir etgan shaxslar soni 125 foizga oshgan.

Shu sababli ayrim o‘ta og‘ir narkojinoyatlar uchun muddatidan ilgari shartli ozod qilish tartibi qo‘llanilmasligi belgilandi. Shuningdek, narkotiklarni ko‘p miqdorda o‘tkazish bilan bog‘liq jinoyatlar uchun jazo choralari yanada kuchaytirildi.

Xulosa o‘rnida shuni alohida qayd etish lozimki, qonun mamlakatimizda narkojinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi huquqiy siyosatni yangi bosqichga olib chiqmoqda. U nafaqat jazolarni og‘irlashtirish, balki jinoyatlarning oldini olish, aholi salomatligini muhofaza qilish, millat genofondini asrash va yoshlarni xavfli ta’sirlardan himoya qilishga qaratilgan kompleks yondashuvni o‘zida mujassam etgan.

Eng muhimi, ushbu qonun jamiyatga muhim signal bermoqda: giyohvandlik va narkojinoyatchilikka nisbatan murosasiz munosabat davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

# BOLALAR OROMGOHLARI — yozgi ta’tilni unumli o‘tkazish imkoniyati

**Yoz — 2026**

**Bolalar uchun yangi kashfiyotlar, yangi xotiralar eshigini ochadigan maskanlardan biri yozgi oromgohdir. Tabiat bag‘rida maza qilib dam olish, qiziqarli mashg‘ulotlar va samimiy do‘stlik muhiti bolalarni oromgohlarga chorlayveradi. Ushbu maskanlarni mavsumga shaylash, ularda zarur sharoitlarni yaratishga alohida e’tibor beriladi.**



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Bu boradagi ishlar haqidagi ma’lumotlarni Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining Bolalarni qo‘shimcha ta’limga jalb qilish bo‘limi boshlig‘i Bahrom Aminov taqdim etdi. Mutasaddi so‘zlariga ko‘ra, vazirlik hamda hududiy boshqarmalarda “Yoz — 2026” shtabi tashkil etildi. Shtab yoz mavsumida oromgohlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash bilan bog‘liq tashkiliy jarayonlarni muvofiqlashtiradi. Ayni paytda “Yoz — 2026” mavsumini mazmunli tashkil etish ishlari avjida.

Joriy yilda vazirlik va idoralar tasarrufidagi 179 ta statsionar oromgohda 157 ming 680 bola dam olishi rejalashtirilgan bo‘lib, 10-iyun holatiga ko‘ra, 140 ta statsionar oromgohda 25 ming 648 bola dam oldirildi. Vazirlik tizimidagi 3 ta statsionar oromgohga esa (Samarqandda 2 ta, Farg‘onada 1 ta) 1060 bola qamrab olinishi rejalashtirilgan.

2025/2026-o‘quv yilida barcha fanlarni a’lo baholarga o‘zlashtirgan, Ijtimoiy reyestrga kiritilgan oilalarning 41 ming farzandi O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi tizimidagi oromgohlarga jalb etiladi.

Oromgohga borish bolalar uchun nafaqat dam olish, balki qiziqarli mashg‘ulotlar, o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyati hamdir. Bu borada ular bilan pedagog kadrlar ishlashi kerak bo‘ladi. Prezidentimizning 2022-yil 18-noyabrdagi “Bolalarning dam olishlarini tizimli tashkil etish va sog‘lomlashtirish ishlarini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga asosan, ehtiyojga ko‘ra, oromgohlarda faoliyat yuritadigan 1145 pedagog ro‘yxati shakllantirildi. Ular joriy yilning 4-8-may kunlari 36 soatlik maxsus o‘quv dasturlari asosida o‘qitildi.

Oromgoh rahbarlari, pedagoglar hamda to‘garak rahbarlari uchun uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqilib, elektron shaklda barcha hududlarga yetkazildi. Pedagog xodimlar belgilangan tartib asosida ishlashi uchun namunaviy ish rejasi tayyorlandi. Maxsus o‘quvlarni tugatgan pedagog xodimlarga dam oluvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishni tashkil etish uchun 2 turdagi uslubiy qo‘llanma tarqatildi.

Statsionar oromgohlarga jalb etilmagan bolalar uchun joylardagi ta’lim muassasalarida 1242 ta sog‘lomlashtirish maydonchasi tashkil etilib, ularda sport, san’at va AT yo‘nalishlarda to‘garaklar faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Bolalarga mo‘ljallangan qiziqarli kino va multfilmlar namoyish qilinadi. Bunga mehnat ta’tiliga chiqmagan 11 mingdan ortiq pedagog jalb qilinmoqda.

Sog‘lomlashtirish maydonchalarida qariyb 157 ming bola dam oldirilishi rejalashtirilgan. Maktablar zarur sharoitlar bilan ta’minlanyapti. Olis Surxondaryo viloyatining Denov tumanidagi 74-maktabda tashkil etilgan sog‘lomlashtirish maydonchasi bu borada namuna qilishga arziydi.

— Bu yil har yilgidan ham ko‘ra ko‘proq o‘quvchilar jalb etildi, — dedi maktab rahbari Ruqiya Hakimova. — Bolalar sport o‘yinlaridan zavqlanyapti. Ayniqsa, shaxmat, shashka, futbol, voleybol musobaqalarida ular juda faol. Kitobxon bolalar kutubxonadan foydalanyapti. Informatika xonasida esa AT texnologiyalar o‘rgatilyapti. Tilga qiziquvchilar uchun turli to‘garaklar ishlab turibdi. Bolalarga nonushta, tushlik tashkil qilganmiz. Maktabimizning mo‘jazgina tomorqasidagi issiqxona mahsulotlarini bolalarimiz bilan baham ko‘ryapmiz. Bularning barini ota-onalar o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, bizga xayrixohlik bildirayotganidan xursandmiz. Zero, bo‘sh vaqti bo‘lmagan bola bema’ni narsalarga chalg‘imaydi, faqat yaxshilik sari intiladi.

Bolalarning bo‘sh vaqtini unumli tashkil etish ko‘plab yomon illatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Shu ma’noda, mas’ullar tomonidan ishlab chiqilgan reja ular uchun har tomonlama manfaatli. Xususan, “Turon” maktab teatri va “Iqtidor” bolalar ansambli jamoalarining 208 ta teatr va konsert dasturi uyushtiriladi. Shuningdek, yozgi ta’til davrida 223 ta “Kelajak” markazida madaniyat va san’at yo‘nalishida o‘quvchilar qiziqishidan kelib chiqib to‘garaklar tashkil etiladi. “Dolzarb 90 kun” doirasida 50 ta “Kelajak” markazida “Yozgi kasblar to‘garaklari” loyihasi amalga oshiriladi.

Yozgi ta’tilda futbol bo‘yicha milliy terma jamoamizni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 220 ta umumta’lim maktabida “Muxlislar maydoni” loyihasi yo‘lga qo‘yiladi. Loyihaga 1 oy davomida 122 ming o‘quvchi qamrab olinadi.

“Futbolimiz kelajagi sening qo‘lingda” musobaqasi, “Turon” maktab teatri va “Iqtidor” maktab ansambli tanlovlarining respublika bosqichlari o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan.

Iqtidorli o‘quvchilar va fan olimpiadalari g‘oliblari o‘rtasida “Z-avlod” respublika forumi o‘tkaziladi. Ushbu loyihalarga 3 mingdan ortiq o‘quvchini jalb qilish ko‘zda tutilgan.

Mamlakatimizda umummilliy kitobxonlik harakati boshlandi. Respublikamizning barcha hududlarini qamrab olgan bu harakatda umumta’lim maktablarining 1-sinfidan 11-sinfigacha o‘quvchilari ishtirok etishi mumkinligi belgilab qo‘yildi. Demak, endilikda oromgohlarda ham kitobxonlik harakati kuchaytiriladi. Ayni maqsadda joriy yil oromgohlarga 57 ming dona bolalar adabiyoti yetkazib berilishi reja qilindi. Shuningdek, “kitob.uz” platformasidagi adabiyotlarning elektron va audio shakllaridan foydalanish bo‘yicha sharoitlar yaratiladi.

“Yosh jadidlar — ma’rifat sari dadil qadam” loyihasi orqali 110 o‘quvchi o‘rtasida kitobxonlik tanlovi tashkil etiladi.

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Ma’rifat targ‘ibotchilar jamiyati tomonidan yo‘lga qo‘yilgan “Yangi O‘zbekistonning baxtiyor bolalari” loyihasi doirasida taniqli ijodkorlarning oromgohlarga borib ma’naviy-ma’rifiy ishlarni o‘rganayotgani, kerakli takliflarni berayotgani ayni muddao. Bolalar dam oladigan maskanlarning milliy qadriyatlar ruhida bezatilishi, oromgohdagi ma’naviy muhitni yanada yaxshilash yuzasidan mutasaddilar bilan fikr almashilayotgani ham maqsadga muvofiq.

Milliy o‘yinlarimizni yo‘lga qo‘yish, kitobxonlik tadbirlarini yuqori saviyada o‘tkazish esa oromgohlardagi foydali mashg‘ulotlar samaradorligini oshirishiga shubha yo‘q.

**Munojat MO‘MINOVA,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**



15-iyun — Shanxay hamkorlik tashkiloti tashkil topgan kun

# SHHT BIRDAMLIGI – BEPOYON MINTAQADA TINCHLIKNI SAQLASH KALITI



**Qobiljon SOBIROV,**
**O‘zbekistonda SHHT Xalq diplomatiyasi markazi direktori**

Boshlanishi 1-betda

Xavfli jarayonlar davlat doirasidan chetga chiqib borayotgan bir paytda muammolar girdobidan qanday qutulish mumkin? Insoniyat qaysi yo‘lni tanlasa, dunyo mamlakatlarining do‘stona munosabatida izchillik shakllanadi? Sa’y-harakatlar muayyan davlatni qamrab olsa, maqsadga erishish mumkinmi yoki global yechimni davlatlarning o‘zaro hamkorligida qidirish zarurmi?

Bu kabi savollar bo‘yicha javoblar ham xilma-xil bo‘lmoqda. Quvonarlisi shundaki, O‘zbekiston yetakchisi global muammolar yechimi sifatida “konstruktiv muloqot va har bir tarafning manfaatlarini hisobga olish va hurmat qilishga asoslangan ko‘p tomonlama hamkorlik”ni ilgari surgan. Bu taklifda insonni ulug‘lashga, murakkab sinovlardan o‘tib kelgan tarixiy qadriyatlarni saqlashga xizmat qiluvchi ilg‘or g‘oyalar, ya’ni faqat o‘zaro hurmat, ishonch va hamjihatlikka asoslangan inklyuziv yondashuvlargina zamonaviy xalqaro hamkorlik konstruksiyasini mustahkamlashga, adolatli dunyo tartibotini shakllantirishga, o‘zaro ishonch va xavfsizlikni ta’minlashga qodirligi mujassamlashgan.

## Mamlakatlar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlash tayanchlaridan biri

Siyosiy qutblilik, iqtisodiy bog‘liqlik, axborot globallashuvi kabi jarayonlar bugungi xalqaro munosabatlarda muhim mazmunga ega. Xalq ijodiga mansub “birlashgan o‘zar” iborasi global dunyoda ham o‘z qadriga ega ekani bugun yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Xususan, biror davlatning ustuvor qutbga ega bo‘la olmasligini so‘nggi o‘n yillik tarix isbotlab berdi.

Davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik zamonaviy dunyoga mos holda turli jabhalarda yo‘lga qo‘yilmoqda. Mintaqaviy xususiyatga ega xalqaro tuzilmalar shular jumlasidan. Xususan, mintaqaviy tashkilotlar a’zo davlatlarga nafaqat xalqaro maydonda umumiy qoida va xulq-atvor normalari bo‘yicha o‘zaro kelishish, balki kelishuvning ijrosini ta’minlash bo‘yicha ham murosa qilish imkonini beradi.

Mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro anglashuvni yanada mustahkamlash, siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, savdo-sotiqni kengaytirish, madaniy-gumanitar almashinuvni rag‘batlantirish, shuningdek, yuz berishi mumkin bo‘lgan ayrim kelishmovchilikni yengib o‘tishda ham yordam beradi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin dunyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash hamda yangi global mojarolarning oldini olish uchun mo‘ljallangan xalqaro institutlar tashkil etilishi e’tiborga loyiq tarixiy faktlardan biridir.

BMT tashkil etilishi bunga yaqqol misol. Shu bilan birga, o‘zaro ziddiyatli vaziyatlar silsilasida faoliyat ko‘rsatgan NATO va Varshava shartnomasi tashkiloti ham ushbu tahlikali davrning mahsuli.

Yillar sayin xalqaro munosabatlarning huquqiy arxitekturasi eskirib borayotgani, xalqaro institutlarga xos tamoyillar ham sezilarli tarzda yangilanayotgani, o‘zgarishlar ayrim hollarda amaldagi xalqaro tartibotga jiddiy tahdid solayotgani kuzatilmoqda.

Global siyosat xavfli beqarorlik belgilarini namoyon etayotganini inobatga oladigan bo‘lsak, xalqaro tashkilotlarning o‘rni va imkoniyatlarini tanqidiy qayta ko‘rib chiqish eng muhim vazifalardan biriga aylanadi. Shu bilan birga, xalqaro institutlar o‘rni va roli zaiflashayotgan hozirgi kunda ko‘p tomonlama faoliyatga asoslangan zamonaviy institutlardan biri bo‘lgan Shanxay hamkorlik tashkiloti global siyosiy va iqtisodiy tizimning ajralmas qismiga, jahonda barqaror va adolatli tartibotni ta’minlashning mustahkam tayanchlaridan biriga aylanmoqda.

SHHT madaniy-sivilizatsiyaviy qarashlari turlicha mamlakatlarni birlashtira olgan, turli qadriyat va turmush tarziga ega xalqlar o‘rtasidagi bir-birini tushunish va o‘zaro hurmatni, ma’naviy yaqinlashuv va gumanitar hamkorlikni faol ravishda qo‘llab-quvvatlab kelmoqda. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “... bu faqat qimmatli boylik emas, balki bizning bepoyon mintaqamizda tinchlikni saqlashning kalitidir”.

Chorak asr mobaynida Yevroosiyo mintaqasida xavfsizlikni ta’minlash va iqtisodiy hamkorlik bilan birga gumanitar muloqotni rivojlantirish SHHT ta’sis hujjatlarida mustahkamlangan ustuvor faoliyat yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

“Katta SHHT oilasi”ga mansub mamlakatlar o‘rtasidagi do‘stona va ishonchli munosabatlar, ko‘p asrlik aloqalar, xalqlarning madaniy va dunyoqarash jihatdan yaqinligi ular o‘rtasidagi hamkorlikning mustahkam va o‘zgarmas asosi hisoblanadi. Mamlakatlarning boy tarixi va yaqin sivilizatsiyaviy aloqalari tashkilot ichidagi keng miqyosdagi madaniy-gumanitar hamkorlikni obyektiv ravishda oldindan belgilab beradi. Shu nuqtayi nazardan, bir necha asrlar muqaddam SHHTga a’zo davlatlar Buyuk ipak yo‘li orqali o‘zaro bog‘langanini yodga olish o‘rinlidir.

Boshqa xalqlarning tili, urf-odatlari va umumiy qadriyatlarini bilish orqali milliy madaniyatlar haqida ijobiy tasavvur uyg‘onadi, ularga nisbatan bag‘rikenglik shakllanadi, natijada turli millatga mansub odamlar o‘rtasida ishonch paydo bo‘ladi.

SHHT mamlakatlari o‘rtasida gumanitar hamkorlikni rivojlantirish uning ta’sis hujjati hisoblangan xartiyada alohida ta’kidlangan. Tashkilotning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Bu haqda SHHT Bosh kotibi Nurlan Yermekbayev o‘tgan yili Pekinda gumanitar almashinuvlar bo‘yicha bo‘lib o‘tgan “Uyg‘unlik va birlik: kelajakni birgalikda yaratish” mavzusidagi forumda alohida ta’kidladi.

So‘nggi 25 yil mobaynida SHHTga a’zo davlatlar o‘zaro madaniy almashinuvlarni izchil kengaytirdi. Bir qator hamkorlik mexanizmlari ishlab chiqildi. O‘zaro muloqotning zamonaviy platformalari yaratilib, nafaqat tashkilot, balki uning ta’sir doirasidan tashqarida ham muhim ahamiyat kasb etuvchi ko‘plab yirik loyihalar amalga oshirildi.

Tashkilotning eng muhim yutug‘i bunyodkorlik falsafasiga qat’iy sodiqlik, teng huquqli hamkorlik uchun ochiqlik, uchinchi davlatlarga qarshi yo‘naltirilmaslik, har bir xalqning milliy xususiyatlari, o‘ziga xosligini hurmat qilishdir.

SHHT xalqaro huquq va ko‘p tomonlamalik tamoyillarini, shuningdek, muayyan mamlakat yoki madaniyatning hukmronligisiz madaniy-sivilizatsiyaviy xilma-xillikni e’tiborga olishni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Binobarin, SHHT turli yo‘nalishli bloklar tuzish, mafkuralashtirish yoki qarama-qarshilik kabi xulq-atvor modellarini istisno qiladi.

Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, SHHT faoliyati muvaffaqiyatining asosiy sharti xalqlar o‘rtasidagi ishonchning mustahkamlanishi, o‘zaro manfaatlarni inobatga olish, teng huquqlilikni ta’minlashdan iborat.

Shuningdek, davlatimiz rahbari “Umumiy qadriyatimiz, birgalikda rivojlanishga intilishimiz, madaniyatlar xilma-xilligiga hurmatimiz ifodasi bo‘lgan ko‘p tomonlama hamkorlikning noyob tajribasi — “Shanxay ruhi”ni mustahkamlash bugun har qachongidan muhim” ekanini e’tirof etgan.

Prezidentimiz sa’y-harakatlari tufayli O‘zbekiston 2017-yildan boshlab SHHT doirasida hamkorlikni rivojlantirishda faol ishtirok etmoqda. So‘nggi o‘n yil ichida mamlakatimiz yetakchisi tashkilot sammitlarida 70 dan ortiq muhim va dolzarb tashabbusni ilgari surdi. Bu tashabbuslar nafaqat xavfsizlik, balki iqtisodiy, transport-logistika, madaniy-gumanitar, turizm sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirishga ham yo‘naltirilgan.

Ushbu faollik O‘zbekistonga tashkilot kun tartibini shakllantirish, muhim qarorlar qabul qilish jarayonida samaraliroq ishtirok etish, shu orqali mintaqaviy hamkorlik sari pragmatik yechimlarni joriy etish imkonini berdi. O‘zbekistonning mintaqaviy nizolarni hal etish, muloqot va maslahatlashuvlarni rivojlantirishdagi konstruktiv roli barcha ishtirokchilar tomonidan e’tirof etildi. Bu esa O‘zbekistonning ishonchli va tinchliksevar davlat sifatidagi maqomini xalqaro miqyosda yanada mustahkamlamoqda.







> O‘zaro ishonchga asoslangan xalqaro tashkilotlarga a’zo bo‘lish, dunyo mamlakatlari, xususan, qo‘shni davlatlar bilan tinch-totuvlik tamoyili asosida muloqot qilish, faqat davlatlararo emas, balki xalqlarning keng qatlamlari o‘rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalarni ham kengaytirish bugungi zamonning asosiy talablaridan biridir.

## Markaziy Osiyo ruhi

SHHT haqida gap ketganda, yana bir muhim jihat — Markaziy Osiyo davlatlari ishtirokining o‘ziga xosligi alohida e’tiborga molik.

Iqtisodiy rivoji bo‘yicha dunyo peshqadamlaridan hisoblangan Rossiya, Xitoy, Hindiston kabi ulkan yurtlarni bog‘lab turgan bu makon ming yillik tarix mobaynida yaxlit bo‘lib kelgani, ularning xalqaro darajada tobora jipslashib borayotgani, ayniqsa, keyingi o‘n yillik mobaynida shakllangan rishtalar bugun o‘z so‘zini aytmoqda.

Jumladan, 2021-yildagi SHHTning Dushanbe deklaratsiyasida Markaziy Osiyo Shanxay hamkorlik tashkilotining yadrosi — markaziy manbasi ekani tasdiqlangani bunga yaqqol dalildir.

Markaziy Osiyoda barqarorlik va xavfsizlikning uzluksiz ta’minlanayotgani, bu boradagi sa’y-harakatlar uzoqni ko‘zlagan siyosatning namunasi ekani mazkur hujjatda ochiq tan olingan.



Keyingi yillarda “5+” formatida o‘tayotgan qator davlatlararo uchrashuvlar aynan Markaziy Osiyoga nisbatan har tomonlama qiziqish kuchayganini anglatadi.

Nazarimizda, bunday xalqaro e’tirof negizini dunyo davlatlarida yuz berayotgan o‘zgarishlar emas, aynan Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligida jadal ro‘yobga oshayotgan jipslik, o‘zaro munosabatlardagi mustahkam ishonch, so‘zsiz tenglik va yaxshi qo‘shnichilik tamoyillari tashkil etadi.

Albatta, davlatlarning integratsiyaga kirishishdan oldin mintaqaviy hamkorlik asosida o‘zaro munosabatlarini mustahkamlanganini xalqaro tajribada kuzatish mumkin. Bu borada Yevropa Ittifoqi, Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasi (ASEAN), Arab davlatlari ligasi, Afrika Ittifoqi kabi integratsion birlashmalarni misol sifatida keltirish mumkin.

Markaziy Osiyo davlatlari ham mustaqillikdan keyin o‘zlarining integratsion tuzilmalarini tuzishga uringan. Bunday xalqaro tashkilotlar o‘zaro ishonch va bag‘rikenglik tamoyillariga asoslanganini ko‘rish mumkin. Xususan, 1998-yil 17-iyulda Cho‘lponotada “Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati” nomi bilan mintaqaviy birlashmaga asos solingan. Biroq bu birlashma 2005-yilgacha faoliyat ko‘rsatgan.

Savollar tug‘ilishi tabiiy: ushbu integratsion birlashma o‘zaro tenglik va tolerantlik tamoyillariga asoslangan bo‘lishiga qaramay, nima uchun kutilgan samarani bermagan? Bugungi Markaziy Osiyoning qaysi jihatlari avvalgi muhitdan farqli?



Aytish mumkinki, hozirgi Markaziy Osiyoning yangi bosqichdagi uyg‘onish davri xalqlarimizning umumiy maqsadi — tinch, barqaror, farovon va ochiq mintaqani barpo etishga amalda xizmat qilmoqda. Nazariy rejalar xalqning kundalik hayotida ro‘y bermoqda.

Bir-biriga qon-qardosh ellarning o‘zaro bordi-keldisi nuqtayi nazaridan qaraganda, Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi chegara rasmiyatchiligi mavjud emas deb aytsa bo‘ladigan darajada ochiqlandi.

Tom ma’nodagi millatlararo samimiy do‘stona aloqalarni ta’minlash Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi munosabatlarda ham, shuningdek, har birining ichki siyosatida ham bir maromda amalga oshirilmoqda.

Mazkur yo‘nalishdagi eng ulug‘vor kuch ushbu yurtlar rahbarlari — mamlakatlar Prezidentlari birdamligida shakllanib, xalqlar tomonidan to‘liq qo‘llab-quvvatlanayotgan birlik, ishonch va o‘zaro ehtirom tamoyillaridir.

Nisbatan qisqa muddatda mintaqaviy hamkorlik va ishonchli muloqotning samarali mexanizmiga aylangan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari mintaqamizda bo‘layotgan o‘zgarishlarning yorqin timsolidir. Ushbu uchrashuvlar Markaziy Osiyoning bugungi taraqqiyoti va kelajagiga daxldor strategik masalalar bo‘yicha umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish uchun asosiy muloqot maydoni sifatida shakllandi.

Prezidentimizning 2025-yil 13-noyabrda chop etilgan “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” maqolasida “... bugungi kunda hamkorligimizni mustahkamlash shunchaki siyosiy maqsad emas, balki strategik zarurat” ekani ta’kidlangan.

Mana shu asnoda jahon siyosatshunosligida mintaqaviy hamkorlik o‘zaro ishonch va hamjihatlikka asoslanganini ifodalovchi “Markaziy Osiyo ruhi” iborasi paydo bo‘ldi.

Mintaqa davlatlari Afg‘onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish masalalarini hal etish, Markaziy va Janubiy Osiyoning o‘zaro bog‘liqligini rivojlantirish tashabbuslarini ilgari surish yuzasidan Yevroosiyoda yangi turdagi munosabatlarni shakllantirishga samarali hissa qo‘shmoqda.

Davlatlararo munosabatlarda tabiiy muammolar bilan birgalikda notabiiy, inson omili natijasi o‘laroq yuzaga keladigan masalalarning yechimini topish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Markaziy Osiyoga oid suvsizlik, cho‘llanish, suv transporti yo‘qligi kabi muammolar geografik joylashuvga bog‘liq, davlatlar chegarasiga oid kelishmovchiliklar, savdo-sotiq, erkin turizm kabi insoniy masalalarni esa davlat boshqaruvi irodasi orqali hal etish mumkin.

Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi barcha chegaraviy muammolarning biror urush-janjalsiz, boshqa davlatlarni aralashtirmasdan, bosiqlik asosida tinch yo‘l bilan uzil-kesil hal etilganini “Markaziy Osiyo ruhi”ning ijobiy natijasi sifatida talqin etish lozim.

Shu o‘rinda chegaraviy muammo to‘liq hal etilgani nishonasi sifatida O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘iziston hududlari kesishgan nuqtaga “Do‘stlik stelasi” o‘rnatilganining bir yilligi xalqlar bayramiga aylanib ketganini qayd etish lozim.

Davlatimiz rahbari bu haqda fikr yuritar ekan, “... kuch va imkoniyatlarimizni birlashtirib, umumiy vazifalarni hal etmoqdamiz, shuningdek, xalqaro hamjamiyatga tinch va bunyodkor hamkorlikning vaqt va hayot sinovidan o‘tgan — ishonch, yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro qo‘llab-quvvatlashga asoslangan o‘z modelimizni taklif etmoqdamiz. Va bugun Markaziy Osiyoni keng mintaqamizda yashayotgan barcha millat va xalqlar uchun yagona tinchlik, farovonlik va taraqqiyot makoniga aylantiradigan ushbu tarixiy sur’atni saqlab qolishimiz har qachongidan ham muhim” ekaniga urg‘u bergan.

## Xalq diplomatiyasi — eng maqbul yo‘l

Rasmiy Toshkent xalqlar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlash, davlatlararo o‘zaro tushunishni chuqurlashtirish, uyg‘un manfaatlarni inobatga olish va tenglik SHHT faoliyatidagi muvaffaqiyatlarning asosiy kafolati ekanini ta’kidlab keladi.

SHHTning boshqa xalqaro tashkilotlardan farqli jihatlarini tushunish uchun tashkilotga a’zo davlatlarning o‘zaro munosabatlarida amal qilinadigan “Shanxay ruhi” tamoyillarini bilish talab etiladi. Uning negizini o‘zaro ishonch, manfaat, tenglik, maslahatlashuv, madaniyatlar xilma-xilligiga hurmat, birgalikda rivojlanishga intilish kabi keng mazmunli tushunchalar tashkil etadi.

Shubhasiz, SHHT roli va nufuzining yanada mustahkamlanishi a’zo davlatlarning “Shanxay ruhi”ga, tashkilot tamoyillari va qadriyatlariga sodiqligiga bog‘liq.

Xitoy yetakchisi Si Szinpin “Shanxay ruhi”ning o‘ta muhimligiga e’tibor berib, “Tashkilotning asosiy qiymati va umumiy konsepsiyasi sifatida “Shanxay ruhi”ga doimiy ravishda rioya qilish, uni global jarayon va tashkilotning rivojlanishini hisobga olgan holda davrning yangi mazmuni bilan doimiy ravishda boyitish muhim”ligini qayd etgan.

O‘zaro ishonchga asoslangan xalqaro tashkilotlarga a’zo bo‘lish, dunyo mamlakatlari, xususan, qo‘shni davlatlar bilan tinch-totuvlik tamoyili asosida muloqot qilish, faqat davlatlararo emas, balki xalqlarning keng qatlamlari o‘rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalarni ham kengaytirish bugungi zamonning asosiy talablaridan biridir.

SHHTga a’zo davlatlar o‘rtasida uzoq muddatli yaxshi qo‘shnichilik, do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnoma va SHHTga a’zo davlatlar hukumatlari o‘rtasida madaniyat sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi bitim kabi huquqiy hujjatlarga muvofiq, SHHT xalq diplomatiyasini rivojlantirish, nodavlat almashinuvlar tarmog‘ini yaratish, muntazam turli tadbirlar o‘tkazish va bir qator loyihalarni amalga oshirishda davom etmoqda.

Fuqarolik jamiyati institutlarini SHHTdagi jarayonlar va uning doirasida qabul qilingan qarorlar ijrosiga keng jalb qilish o‘zaro salohiyatimizni yanada yuksaltiradi hamda samarali hamkorlik uchun yangi ufqlarni ochadi. Ayniqsa, ayollar, yoshlar tashkilotlari, akademik doiralar, ishbilarmonlar, sport jamoalari va ijodiy guruhlar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish xalqlarimizni yanada yaqinlashtirish bilan birga yakdillik, tinchlik va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlikni mustahkamlaydi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan quyidagi takliflar yurtimiz va mintaqada xalq diplomatiyasini yanada muvaffaqiyatli amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin:

— SHHTga a’zo davlatlarda xalq diplomatiyasi amaliyotining yagona ma’lumotlar bazasini yaratish va NNTlar, tahlil markazlari, oliy ta’lim muassasalari va yoshlar tashkilotlari o‘rtasida tajriba almashish maqsadida “Barqaror kelajak uchun muloqot” onlayn platformasini ishga tushirish;

— NNTlarni sohaga keng jalb etish, ularning ilg‘or loyihalarini ommalashtirish maqsadida har yili “Xalq diplomati” xalqaro tanlovini o‘tkazish;

— xotin-qizlarning jamoatchilik hayotidagi ishtirokini kengaytirish, yetakchilik ko‘nikmalarini mustahkamlash va xalq diplomatiyasida ularning rolini yanada oshirishga qaratilgan seminarlar, mahorat darslari va ta’lim dasturlarini o‘z ichiga oluvchi “SHHT: ayollar ovozi” loyihasini ishga tushirish;

— Markaziy Osiyo va SHHT mamlakatlarida o‘tkazilayotgan qator festival va ko‘rgazmalar “madaniy xaritasi”ni yaratish;

— atrof-muhit haqida xabardorlik va muhofaza qilish uchun mas’uliyatni oshirish hamda xalqaro ekologik hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan “EKO-SHHT” va “Tabiat — jamiyat — inson” loyihalari doirasida ekologik aksiyalar, seminarlar va ta’lim tadbirlarini o‘tkazish, taniqli olimlar, madaniyat va jamoat arboblarining tajriba almashishi va hamkorligini mustahkamlash maqsadida “SCO Exchange” loyihasini amalga oshirish;

— xususiy sektor va xalqaro moliya institutlarini mazkur loyihalarni qo‘llab-quvvatlashga jalb qilish mexanizmlarini joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, xalq diplomatiyasi turli davlatlar xalqlarining o‘zaro munosabatlarini yanada yaxshilashga qaratilgan, ikkinchi tomondan, har bir davlatdagi xalqlarning o‘zaro ichki turmush tarzida ham birdamlikni ulug‘lovchi va yuraklarni ilhomlantiruvchi tuyg‘udir.

Xalqaro notinch vaziyatda davlatlararo munosabatlarni barqarorlashtiruvchi, do‘stlik va madaniyat urug‘ini ekuvchi xalq diplomatiyasining imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishimiz kerak.

## Prezident qarorlari – hayotda va nazoratda

# RAQAMLI YECHIMLAR, IJRO INTIZOMI – YUQORI SAMARADORLIK GAROVI






**Farrux PO‘LATOV,**
**O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi raisi**

Boshlanishi 1-betda

Shu maqsadda har bir rahbar va xodimning aniq hisobdorlik, shaxsiy mas’uliyat va javobgarligini yanada oshirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-iyuldagi “Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bu boradagi amaliy ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda.

Jumladan, tahlillarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, joriy yilning o‘tgan davrida “Ijro.gov.uz” tizimida Soliq qo‘mitasining 525 ta nazoratdagi topshirig‘i mavjud bo‘lib, shundan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 412 ta, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining 59 ta, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida belgilangan 54 ta topshiriqning ijrosi to‘liq ta’minlandi.

Davlatimiz rahbari tomonidan joriy yil 13-mart kuni o‘tkazilgan yig‘ilishda belgilangan vazifalar mamlakatimizda boshqaruv tizimi, ayniqsa, ijro intizomini mustahkamlash va aholi murojaatlari bilan ishlashda yangi bosqichni boshlab berdi.

Mazkur yig‘ilishda Prezidentimiz tomonidan ijro intizomi faqat “qog‘oz to‘ldirish” emas, balki qarorlarning hayotdagi ijrosini ta’minlashdan iborat ekani alohida ta’kidlandi. Shu bois, bugun soliq tizimida barcha topshiriq hamda soliq to‘lovchilardan kelib tushadigan murojaatlar ijrosi yuzasidan “qat’iy nazorat va shaxsiy mas’uliyat” tamoyili asosida ish yuritilmoqda.

Darhaqiqat, yuksak rivojlanish davrida davlatimiz siyosati lavozimidan qat’i nazar, har bir rahbar yuzaga kelgan muammo yoki vazifa bilan ishlashi, har bir hujjatni ishlab chiqishda joyiga chiqqan holda o‘rganishi, aholi va tadbirkorlik subyektlarining fikrlarini tinglashi hamda imkoniyatlarni tahlil qilishi lozim.

### Mas’uliyat, tartib, natijadorlik

Soliq qo‘mitasiga kelib tushayotgan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosining o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi bo‘yicha har haftaning dushanba kunlari — mustaqil tuzilmalar rahbarlari, chorshanba kunlari — rais o‘rinbosarlari va juma kunlari — qo‘mita raisi tomonidan shaxsan mas’ul ijrochilar bilan muhokama o‘tkazish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Bundan tashqari, qonunchilik hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish jarayonidagi yondashuv to‘liq qayta ko‘rib chiqildi. Endi tarkibiy tuzilmalar tomonidan kiritilayotgan takliflarning mavjud imkoniyatlarga muvofiqligi hududlarni rivojlantirish hamda iqtisodiyot sohalarini tahlil qilish tuzilmalari tomonidan joylarga chiqqan holda o‘rganiladi.

Shundan so‘ng metodologiya va yuridik xizmat tuzilmalari tomonidan loyihaning Soliq kodeksi va boshqa qonunchilik hujjatlari normalariga muvofiqligi bo‘yicha huquqiy ekspertizadan o‘tkaziladi hamda strategik rejalashtirish tuzilmasi tomonidan xalqaro tajribalar o‘rganilgan holda tegishli tuzilmalar bilan birgalikda iqtisodiy va moliyaviy tahlillar tayyorlab beriladi.




Mazkur jarayonlar o‘tkazilganidan keyin fikr va mulohazalarni to‘plash maqsadida matbuot xizmati tomonidan loyiha bilan rejalashtirilayotgan o‘zgarishlar axborot vositalari orqali e’lon qilinadi. Shundan keyingina yakuniy hujjat kelishish uchun manfaatdor tashkilotlarga yuboriladi. Soliq qo‘mitasida ijro intizomini ushbu tartibda yo‘lga qo‘yish maqsadida har bir tuzilmada mas’ul ijrochilar belgilandi hamda ular bilan zaruriy trening va seminarlar o‘tkazildi.

Bundan tashqari, Soliq qo‘mitasi markaziy apparatining tashkiliy tuzilmasida qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosi ustidan nazoratning mutlaqo yangi tizimi joriy qilindi.

### Avtomatlashtirilgan nazorat tizimi

Farmon bilan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini nazorat qilishning yangi tizimi joriy qilinib, ijro intizomi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organlar soni va ularning vakolatlari oshirilgan. Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar o‘z vaqtida hamda sifatli ijro etilishi bo‘yicha nazorat O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Hisob palatasi va Adliya vazirligi tomonidan “Ijro.gov.uz” tizimi orqali yuritilmoqda.

Ushbu tizim orqali nazoratga olingan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar barcha tashkilotlarning rahbariyati va mas’ul ijrochilariga yetkaziladi hamda ularning keyingi holati nazorat qilib boriladi.

Soliq xizmati organlarida ijro intizomini mustahkamlash maqsadida 2015-yildayoq ish yuritishning ichki jarayonlari to‘liq avtomatlashtirilib, elektron hujjat almashish tizimi joriy etilgan.

> **Mas’ul xodimlar “24/7” formatida ijtimoiy tarmoqlarni kuzatib boradi va soliq organlariga tegishli har qanday ma’lumot paydo bo‘lganda darhol javobini tayyorlash uchun ijrochiga yetkazadi. Shu tarzda 2026-yilning birinchi yarmida ijtimoiy tarmoqlardagi 26 ta sharhga tezkor, uzog‘i bilan 2-3 soatda rasmiy munosabat bildirildi.**

Mazkur tizim orqali qonunchilik hujjatlari, Prezident va hukumat topshiriqlaridan tortib, barcha ichki idoraviy hujjatlar elektron ro‘yxatdan o‘tkaziladi hamda mas’ul rahbarlar tomonidan topshiriqning mohiyatidan kelib chiqib, ularni imkon qadar qisqa muddatda va natijaviy bajarish to‘g‘risida rezolyutsiya qo‘yilgan holda ijrochiga yo‘naltirish imkoniyati yaratilgan.

Bundan tashqari, ushbu avtomatlashtirilgan tizim orqali soliq organlarida hujjatlarni qog‘oz shaklida kelishish va imzolash amaliyotiga to‘liq chek qo‘yilgan. Shu bilan birga, elektron raqamli imzo kalitidan foydalangan holda maxsus mobil ilova orqali ijroga kelgan hujjatlarni ko‘rib chiqish, ijroga qaratish va nazoratdan chiqarish imkoniyatlari yaratilgan bo‘lib, bu qo‘mitada ish yuritishni sezilarli darajada tezlashtirishga imkon berdi.

Eng ahamiyatlisi, har bir hujjat va topshiriq mazkur tizim orqali qisqa muddatda mas’ul ijrochilarga yetkazib beriladi va topshiriqning ijro etilish holati real vaqt rejimida kuzatib boriladi.

Shuningdek, Soliq qo‘mitasida barcha hujjat va topshiriqlar “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari”, “yuqori tashkilot topshiriqlari”, “fuqarolar murojaati”, “ichki farmoyish” kabi toifalar bo‘yicha alohida nazoratga olingan holda yuritiladi.

Topshiriqlar ijrosi bo‘yicha Soliq qo‘mitasining tashkiliy nazorat tuzilmasi tomonidan gorizontal va har bir tuzilma tomonidan uning eng quyi hududiy bo‘linmasiga qadar vertikal tartibdagi nazorat tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

Bunday tizim rahbar xodimlarning shaxsiy mas’uliyati va hisobdorligini oshirish, murakkab sharoitlarda vazifaning to‘liq va sifatli bajarilishini nazorat qilib borish imkonini beradi.

### Baholash ko‘rsatkichlari asosiy mezon

Ijro intizomini mustahkamlashda tizimdagi har bir xodimning mas’uliyatini oshirish, qat’iy intizom o‘rnatish, ularda kasbiy g‘urur, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik va halollik hissini uyg‘otish muhim ahamiyat kasb etadi.

Soliq organlaridagi raqamlashtirish, faoliyatni manzilli tashkil etish va boshqa islohotlar har bir xodimning aniq ish hajmi va uning samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Xususan, soliq organlarida mas’ul ijrochilar tomonidan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning sifatli bajarilishini raqamli nazorat qilish xodimlarning ish samaradorligini belgilovchi aniq mezonlardan biriga aylandi.

Har bir topshiriq ijrosi uchun mas’ul xodim aniq belgilangani va ijro muddati haqida oldindan avtomatik xabardor bo‘lishi vaqtni to‘g‘ri taqsimlash imkonini beradi.

Shuningdek, ijrochi xodimlarning shaxsiy mas’uliyati va tashabbuskorligini oshirish, yuklatilgan vazifani o‘z vaqtida va sifatli bajargan xodimlarni rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadida Jahon banki ekspertlari bilan birga xodimlar ish faoliyati samaradorligini baholashning (KPI) avtomatlashtirilgan tizimi joriy etildi.

Ushbu tizim orqali har bir ijro hujjatining belgilangan mezonlar asosidagi baholash ko‘rsatkichlari bo‘yicha ijrochi xodimlar rag‘batlantiriladi yoki intizomiy jazo choralari ko‘riladi.

Soliq xizmati organlarida ijro intizomiga mas’ul xodimlarning bilimi va malakasini oshirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ish samaradorligiga erishishning yana bir muhim omili — xodimlarni mehnat qonunchiligiga muvofiq ish vaqtidan tashqari majburan ishga jalb etmaslik.

Soliq xizmati organlarida xodimlarning ishga kelib-ketishi ma’muriy binoga kirish va chiqish vaqtini qayd qilishning elektron tizimi orqali nazorat qilinadi. Shu maqsadda barcha xodimlarga belgilangan ish soatlaridan ortiqcha vaqt ishda qolishi ular yuklatilgan vazifani o‘z vaqtida bajara olmasligi va layoqatsizligi sifatida baholanishi yetkazildi.

### Barcha elektron xizmatlar yagona platformada

Soliq xizmati organlariga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali sohada inson resurslaridan unumli foydalanish hamda topshiriqlarni tezkorlik bilan bajarishga erishilmoqda.

Xususan, soliq organlarini “xizmat ko‘rsatuvchi” yuqori texnologiyali tashkilotga transformatsiya qilishni davom ettirish maqsadida 2026-yilning birinchi yarmida bir qancha yangi axborot tizimlari amaliyotga joriy etildi.

Soliq organlari tomonidan aholi va tadbirkorlik subyektlariga ko‘rsatiladigan barcha elektron xizmatlar yagona platformaga birlashtirildi.

Har bir fuqaro yoki tadbirkor telefoni orqali “Soliq” mobil ilovasidan foydalanib, soliq sohasiga oid barcha savollariga javob olishi, soliq majburiyatini bajarishi, tadbirkor esa biznes jarayonlarini kuzatib borishi, biznes hamkorlarini o‘rganishi va tanlashi mumkin.

“Soliq” mobil ilovasidan bugun amalda 17,4 million fuqaro ro‘yxatdan o‘tgan. Shundan 16,3 millioni doimiy faol foydalanmoqda.

Jumladan, “Soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti”ga 2025-yil davomida qariyb 406 ming marotaba, 2026-yilning o‘tgan davrida 172 ming marotaba murojaat qilingan.

Ushbu yaratilgan shart-sharoitlar aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun soliqqa oid masalalarni masofadan turib hal qilish imkonini beradi.

### Fuqarolar murojaati e’tiborsiz qolmaydi

Soliq xizmati organlarida fuqarolar murojaatlari elektron hujjat almashish tizimi orqali “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasiga murojaat”, “Soliq qo‘mitasi raisining virtual qabulxonasiga murojaat”, “Ishonch telefoni orqali murojaat” kabi toifalarga ajratilgan holda ijrochilarga tezkorlik bilan yetkaziladi.

Shuningdek, soliq xizmati organlarida tashkil etilgan murojaatlar ijrosi bo‘yicha mas’ul bo‘linma tomonidan har bir murojaat soliq organiga kelib tushganidan to unda keltirilgan masala hal etilguniga qadar nazorat qilib boriladi.

Shu bilan birga, muallif “Soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti” orqali elektron ko‘rinishda yuborgan murojaatining ijro etilishi holatini kuzatib borishi imkoniyati yaratilgan.

Bundan tashqari, Soliq qo‘mitasida ijtimoiy tarmoqlar (facebook, telegram) orqali fuqarolar yuborayotgan murojaatlar, keng jamoatchilik tomonidan muhokama etilayotgan soliqqa oid munozarali masalalarni tezkorlik bilan ko‘rib chiqish ham tizimli yo‘lga qo‘yilgan.

Ayniqsa, mas’ul xodimlar “24/7” formatida ijtimoiy tarmoqlarni kuzatib boradi va soliq organlariga tegishli har qanday ma’lumot paydo bo‘lganda darhol javobini tayyorlash uchun ijrochiga yetkazadi. Shu tarzda 2026-yilning birinchi yarmida ijtimoiy tarmoqlardagi 26 ta sharhga tezkor, uzog‘i bilan 2-3 soatda rasmiy munosabat bildirildi.

“Soliq organlari bilan qayta aloqa” axborot tizimi orqali jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilish tizimi ham yo‘lga qo‘yilgan. Bunda kunlik kelib tushgan murojaatlar tezkorlik bilan tegishli tuzilmalarga yo‘naltirilib, 1-3 kun oralig‘ida ijrosini ta’minlash nazoratga olingan. Joriy yilning o‘tgan davrida 27,4 ming jismoniy va yuridik shaxsdan murojaatlar kelib tushgan va ular o‘z vaqtida ijobiy hal etilgan.

Joriy qilingan ushbu tizimga muvofiq har bir murojaat shaxsan qo‘mita raisi nazoratida. Eng muhimi, Soliq qo‘mitasida murojaatlarga tezkor javob berilishi bilan birga eng ko‘p uchraydigan savollar tahlil qilinib, shu asosda soliq organlarining biznes jarayonlarini takomillashtirib borish strategiyasi yo‘lga qo‘yilgan.

Xullas, bugun ishonch bilan aytishim mumkinki, soliq xizmati organlari xodimlari har bir murojaat, qonun hujjatlari va topshiriqlar zamirida inson taqdiri mujassam ekanini to‘laqonli his etadi.

Soliq qo‘mitasi jamoasi ijro etuvchi organ sifatida topshiriqlarning o‘z vaqtida bajarilishi, mazkur yo‘nalishda mustahkam ijro intizomini joriy qilish borasida tizimli ish yuritadi.

---



## Agrar tarmoq

# XORIJ BOZORIGA TARVUZ EKSPORTI HAJMI ORTMOQDA




**Avvallari Qashqadaryoda ertapishar tarvuz haqida gap ketsa, eng avvalo, ko‘kdalalik mirishkorlar tilga olinardi. Bugun bu tashabbus keng quloch yozib, qo‘shni tumanlarda ham joriy etilmoqda. Natijada erta bahordayoq pishib yetiladigan mahsulot tashqi bozorlarga chiqarilib, dehqonlarga yuqori daromad keltirmoqda. Aholining bandligi ham ta’minlanmoqda.**

Jumladan, keyingi yillarda Koson tumanidagi Rahimso‘fi, Andabozor, Xo‘jaquduq va Yakkasaroy qishloqlarida tarvuz yetishtirish salmog‘i oshgan. Hosil ichki bozor bilan birga xorijga ham sotilmoqda. Misol uchun, joriy yilning o‘tgan davrida mazkur hududlardan eksport qilingan tarvuz qiymati 1 million dollardan oshdi. Bu esa mahalliy dehqonlarning mehnati xalqaro bozorlarda ham munosib baholanayotganini ko‘rsatadi.

Mahalla faollarining aytishicha, yaqingacha mazkur hududlardagi aholi faqat chorvachilik bilan mashg‘ul bo‘lgan. Yer maydoni katta bo‘lsa-da, ishlatishga imkoniyat topilmagan. Asosan, lalmi yerlar. Suv tanqisligi va iqlim sharoiti odamlarda dehqonchilik qilishning iloji yo‘qdek tasavvur uyg‘otib kelgan. Bir kun kelib, shu dalalarda tarvuz yetishtirilishi kosonliklarning xayoliga ham kelmagan. Tashabbuskorlar har qanday sharoitda ham imkonini topadi. Ko‘p ham olis bo‘lmagan Ko‘kdala tumani tajribasini o‘rgangan rahimso‘filik dehqonlar yer osti suvidan unumli foydalanish yo‘lini topdi. Dastlab 150-170 metr chuqurlikkacha quduqlar qazilib, nasoslar o‘rnatildi. Dehqonchilik uchun muhim bo‘lgan suv muammosi hal etilgach, harakat boshlandi. Natijada yillar davomida qarovsiz yotgan yerlar hosildor maydonlarga aylandi. Cho‘l bag‘ri yashillikka burkandi. Ishsiz yurgan aholi bandligi ta’minlanib, oilalarga daromad kirib bordi. Odamlarning turmush tarzi yaxshilana boshladi.

Tumanning chekka manzillaridan biri bo‘lgan Rahimso‘fi qishlog‘ida bugun katta maydonda tarvuz yetishtirilmoqda. Jumladan, shu qishloqlik ilg‘or dehqonlardan biri Jahongir Boymatov bu borada yuqori natijalarga erishyapti. Bundan ancha yil oldin sinov tariqasida 50-60 sotix yerda tarvuz ekib ko‘rgan bo‘lsa, bugun 5 gektar maydonda mahsulot yetishtirmoqda. Daromadining cho‘g‘i baland. Shu yo‘nalishda ish boshlayotganlar bilan ham tajribasini o‘rtoqlashib kelmoqda.

— Aynan shu yo‘nalish bilan qariyb o‘n uch yildan buyon shug‘ullanamiz. Halol mehnatning noni shirin. Birovdan kam bo‘lganimiz yo‘q, — deydi Jahongir Boymatov. — Ilgari faqat kechki tarvuz ekardik. U lalmi bo‘lgani uchun ko‘p vaqt talab etardi. Ob-havo yaxshi bo‘lsagina kutilgandek hosil olardik. Ertaki navni ekishga o‘tganimizdan so‘ng yaxshi daromad topyapmiz. Bunga harakat qish faslidan boshlanadi. Yanvarda dastlab ko‘chatlarni stakanda ko‘kartiramiz. Martning boshlarida esa plyonka ostiga eka boshlaymiz. Mayning oxirlariga kelib, dastlabki hosilni yig‘ib olamiz. Bu yil 200 tonna atrofida hosil olishni reja qilganmiz.

Dehqonning aytishicha, yuqori hosildorlikka erishish uchun agrotexnik talablarga qat’iy amal qilinadi. Xususan, bir maydonga ketma-ket tarvuz ekishdan voz kechilib, almashlab ekish usuli qo‘llanadi. Bu esa tuproq unumdorligini saqlash va kasalliklarning oldini olishda muhim. Yana bir jihati — imkon darajasida mahalliy o‘g‘itdan foydalanish samara beradi.

Dehqonchilikda zamonaviy resurs tejovchi texnologiyalar keng joriy qilinmoqda. Quduq nasoslari uchun zarur elektr energiyasi quyosh panellari orqali ta’minlansa, suv tanqisligining oldini olish maqsadida tomchilatib sug‘orish texnologiyasidan foydalanilmoqda. Bu esa ishlab chiqarish xarajatini qisqartirish bilan birga ekologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Kam xarajat orqali ko‘proq daromad olishga erishilmoqda.



Tuman mutasaddilarining ta’kidlashicha, ushbu qishloqlarda yashovchi deyarli har bir oilaning tarvuz ekiladigan kamida 50-60 sotixdan maydoni mavjud. Tayyor mahsulotni sotish borasida muammo yo‘q. Xaridorlar mahsulotni dalaning o‘zidan olib ketmoqda. Bu esa dehqonning vaqti va xarajatini tejaydi. Ayni kunlarda ham dalada ish qizg‘in. Har bir paykal boshida yuk mashinalari navbat kutib turibdi. Dehqonlar esa hosil mo‘l bo‘lganidan mamnun. Pishiqchilikning ilk kunlarida yaxshigina narxda sotishgan bo‘lsa, bugun tarvuz narxi bir oz barqarorlashgan.

— Joriy yil biz uchun barakali keldi, — deydi Jahongir Boymatov. — Har kuni tonnalab tarvuz sotilmoqda. Bu mavsum davomida tinimsiz qilgan mehnatimiz mahsuli. Shuning ortidan qishloqlarimiz obod bo‘lmoqda. Turmushimiz farovonlashdi. Aholining bandligi ta’minlandi. Ayni kunlarda yaqin atrofdagi qishloqda biror kishining bekor o‘tirganini ko‘rmaysiz. Ba’zida qo‘shni qishloqlardan ishchi yollashimizga to‘g‘ri keladi. Ilgari aksariyat yoshlar ishlash uchun xorijga ketardi. Bugun ish izlab, chetga ketayotganlarni deyarli uchratmaymiz. Aksincha, odamlar chet elga tarvuz sotib, boy bo‘lmoqda.

Qoidaga ko‘ra, eksportbop mahsulot yetishtirishda sifat va xavfsizlik masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, tuman o‘simliklar karantini va himoyasi bo‘limi mutaxassislari dehqonlarga hamisha yordamga tayyor. Ko‘chat ekishdan tortib, hosil yig‘im-terimiga qadar fitosanitar nazorat o‘tkazilib, amaliy tavsiyalar berib borilmoqda. Fitosanitar nazorat inspektori Eldor To‘rayevning ma’lum qilishicha, Koson tumanida tarvuzchilikka qiziqish yil sayin oshib bormoqda.

— Yilma-yil tahlil qilib ko‘rsak, dehqonlar tajribasi ortib borayotganiga guvoh bo‘lamiz. Misol uchun, avvalgi yillarda 4500-5000 gektar maydonda tarvuz yetishtirilgan bo‘lsa, joriy mavsumda bu ko‘rsatkich 7000 gektarga yetdi. Bugunga qadar 1 million 100 ming dollarlik mahsulot eksport qilindi. Tarvuzlar asosan Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Latviya va Litva bozorlariga yetkazib berilmoqda. Bu yilgi eksport rejamiz 2 million dollar, — deydi Eldor To‘rayev. — Mehnatga yarasha daromad topayotgan dehqonlar shashti baland. Kelgusi yilda hosildorlik yanada ortadi. Boisi, hozirdan qo‘shimcha yerlarga ishlov berish boshlab yuborilgan. Bu esa eksport hajmining oshishiga xizmat qiladi.

Boshqa yo‘nalishlar kabi tarvuzchilik bugun nafaqat qishloq xo‘jaligi tarmog‘i, balki aholi farovonligini ta’minlayotgan, yangi ish o‘rinlari ochayotgan va eksport salohiyatini oshirayotgan muhim iqtisodiy omilga aylanmoqda. Bir paytlar yantoqdan o‘zga narsa o‘smaydigan lalmi yerdan iborat Rahimso‘fi qishlog‘i atrofidagi kengliklar bugun yam-yashil ekin maydoniga aylangan. Bu manzara inson mehnati, izlanishi va tadbirkorlik ruhi mahsuli. Ushbu tajriba qishloq aholisi uchun yerdan samarali foydalanish orqali munosib daromad topish mumkinligini amalda isbotlab bermoqda. Halol mehnat ortidan kelayotgan daromad esa bugun nafaqat ayrim xonadonlar, balki butun mahallalar taraqqiyotining muhim tayanchiga aylanib borayotir.

**Akbar RAHMONOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**









Ta’lim

**Bugun dunyoda yuz berayotgan globallashuv, texnologik inqilob va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar oliy ta’lim tizimi oldiga yangi talablarni qo‘ymoqda. XXI asrda universitetlar nafaqat bilim beruvchi muassasa, balki ijtimoiy transformatsiya drayveri, innovatsion rivojlanish markazi va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosiy platformasi sifatida faoliyat yuritishi zarur. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida mazkur jarayonni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil va tahliliy fikr yurita oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko‘tarish belgilangan.**

**Dilnoz RO‘ZIYEVA,**
**Buxoro innovatsiyalar universiteti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor**

# BOSHQARUV, SIFAT VA IJTIMOIY TRANSFORMATSIYA

Ayniqsa, ta’limga intiluvchan yoshlarning qamrovini oshirish va sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish maqsadida nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularga keng imkoniyatlar yaratish katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa ko‘zlangan maqsadlarga erishish yo‘lida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

## “T-5” tamoyili

Prezidentimizning 2026-yil 10-apreldagi “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida “T-5” tamoyili, ya’ni ta’lim, tarbiya, tadqiqot, tijoratlashtirish va tizimli takomillashtirish vazifasi belgilandi.

Darhaqiqat, oliy ta’limning mazmuni faqat bilim berish bilan cheklanmay, tarbiyalash, yangi bilim yaratish, uni amaliyotga joriy etish va tizimni muntazam ravishda rivojlantirishni ham qamrab oladi. Yoshlar uchun zamonaviy ta’lim muhiti yaratish, bitiruvchilarni mehnat bozori talablariga to‘liq moslashtirish, mas’uliyatli va jamiyatga foydali shaxslarni tarbiyalash, yangi bilimlar yaratish va muammolarga samarali yechim topish, innovatsiyalarni rivojlantirish hamda ilmiy natijalarni mahsulot va xizmatlarga aylantirish kabi vazifalar yangi O‘zbekiston siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan.

Ushbu jarayonga Buxoro innovatsiyalar universiteti professor-o‘qituvchilari va talabalari ham munosib hissa qo‘shmoqda. 2022-yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan mazkur universitet Buxoro va Sirdaryo viloyatlarida faoliyat yuritmoqda. Qisqa muddatda universitetda 400 ga yaqin ish o‘rni ochildi, o‘nlab fan doktorlari yetishib chiqdi, yuzlab kitoblar chop etildi. Eng muhimi, 10 mingdan ortiq yoshga oliy ta’lim olish imkoniyati yaratildi. Ular orasida turli sabablarga ko‘ra oliy ta’limdan chetda qolgan, xorijda o‘qish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelgan iqtidorli yoshlar ham bor.

2017-yilda mamlakatimizda oliy ta’limga qamrov sakkiz foiz atrofida bo‘lib, arzimagan ball yetishmasligi bilan abituriyentni bilimsizga chiqarib qo‘yar edik. Oliy ta’limga qamrov masalasidagi muammolar sababli yoshlarimiz xorijga ishga ketar yoki hayotining bir necha yilini abituriyent sifatida o‘tkazardi. Yana bir eng yomon an’ana — odam kam topshirgani uchun o‘zi istamagan yo‘nalishlarga o‘qishga topshirib, umrini, mablag‘ini behuda sarflab, oxiri baribir shu kasbda ishlamas edi.

## Diplom olsa bas, qolgani bir gap bo‘lar

Mamlakatimizda yoshlarning ilm olishi, umuman, har tomonlama rivojlanishi uchun barcha sharoit mavjud. Yangi nodavlat oliy ta’lim muassasalari ko‘p yillik tajribaga ega davlat universitetlari bilan sog‘lom raqobatga kirisha boshladi. Lekin son ortishi sifatga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi masalasi bugun kun tartibiga chiqdi. Biroq yoshlar, hatto farzandining oliy ta’lim olishi uchun pul to‘layotgan ota-onalar endigina maktab ostonasidan chiqqan, o‘zi tanlagan mutaxassisligiga oid kasbiy bilimlar, ko‘nikmalarni egallashga, xorijiy tillar, kompyuter texnologiyalarini o‘zlashtirishga katta ehtiyoji bor yoki o‘zi istagan yo‘nalishda hammaslak bo‘ladigan muhitda birga rivojlanish imkoniyatlarini o‘ylamay, “bolamga sharoit qilib bering, bu ishlab pul topishi kerak, diplom olsa bas, qolgani bir gap bo‘lar” degan vajlar bilan murojaat qiluvchilar ham yo‘q emas.

Davlatimiz tomonidan oliy ta’lim olish imkoniyatlari yaratildi, endi hech kim o‘zi tanlagan kasbi qolib, ball kam talab qilinadigan yo‘nalishga topshirishga ham majbur emas. Tanlash imkoniyati keng. Superkontrakt to‘lamaydi, to‘g‘ri tanlov qila olsa bas. Endi odamlarimiz bir jihatni yaxshi anglashi kerak: ikki tomonlama shartnomada bilim oluvchi pulini to‘laydi, ta’lim muassasasi uni jamiyatimizga kerakli, raqobatbardosh kadr qilib yetkazib chiqarishi kerak. Nomiga diplom emas, ta’lim muassasalaridan sifatli ta’limni talabaning o‘zi talab qilishi kerak!

Bugungi oliy ta’lim tizimida yana bir juda jiddiy muammoga duch kelyapmiz. Talaba sonining ortishi ayrim ta’lim muassasalarining boshqaruv jarayonidagi tajribasizlikni ko‘rsatib qo‘ymoqda. O‘ttiz besh yildan ortiq oliy ta’lim tizimidagi tajribam, pedagogika fanlari doktori sifatidagi mas’uliyatim ta’limdagi ayrim jihatlarni aytishga undadi.







## Zamonaviy universitet qanday bo‘lishi kerak?

Fikrimni o‘zim boshqarayotgan Buxoro innovatsiyalar universiteti misolida to‘ldirsam. Jamiyatga yaxshi bitiruvchi berish uchun, eng avvalo, ishga yaxshi xodimni olish kerak. Shu bois, universitetimizda professor-o‘qituvchilarni ishga qabul qilish tizimi to‘liq raqamlashtirilgan. Har bir xodim bilan mehnat shartnomasiga qo‘shimcha “performance agreement” — samaradorlik kelishuvi tuziladi.

Universitet maqsadlaridan kelib chiqib, har bir professor-o‘qituvchi va xodim uchun samaradorlik ko‘rsatkichlari belgilanadi. Bu tizim faoliyat natijalarini obyektiv baholash, ilg‘or tajribalarni rag‘batlantirish va institutsional rivojlanishni tizimli monitoring qilish imkonini beradi.

“BIU elektron universitet” platformasi ishga tushirilgan. Boshqaruv tizimi va o‘quv jarayoni, axborot-resurs markazi va hujjatlar aylanmasini elektronlashtirishni ta’minlovchi yagona raqamli platforma ishga tushirilgan. Bu workflow (ish jarayonlari)ni elektron boshqarish imkonini yaratadi.

## Sun’iy yo‘ldosh Mo‘ynoq shaharchasida uchiriladi

Buxoro innovatsiyalar universiteti 2030-yilgacha “Universitet 5.0” modeliga to‘liq o‘tishni rejalashtirmoqda. Bu model — ta’lim, ilm-fan, innovatsiya, ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish va sun’iy intellekt integratsiyasini yagona ekotizim sifatida uyg‘unlashtiradi. Modelning asosiy mohiyati: Universitet 5.0 = ta’lim ilm-fan + innovatsiya + tijoratlashtirish + sun’iy intellekt. Natijada universitet aql va madaniyat markazi, jamiyat va iqtisodiyot ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlovchi, hududiy va milliy rivojlanishning drayveri sifatida namoyon bo‘ladi. O‘quv muassasamizda ta’lim jarayoni “kompetensiya + amaliyot + raqamli ko‘nikma” modeli asosida qator yo‘nalishlarda modernizatsiya qilinmoqda.

Birinchi navbatda, talabalarga original adabiyotlar o‘qitishga katta e’tibor qaratyapmiz. Talaba kutubxonaga murojaat qilmadimi, demak, o‘qituvchi uni bu yerga yo‘naltira olmagan. Shu bois, guruhlararo, yo‘nalishlararo, universitet miqyosida mutaxassislik fanlaridan original adabiyotlar o‘qish bo‘yicha olimpiadalar, musobaqalar tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Bu borada talabalarni rag‘batlantirish tendensiyasi amal qiladi. Professor-o‘qituvchilarimizga loyiha ishlari, simulyatsiyalar, Blended learning va Flipped classroom texnologiyalari, fanlararo musobaqalar, mustaqil ta’lim soatlari ulushini oshirish talablari qo‘yiladi. Bularning barchasi tizimli tahlil qilib boriladi.

Universitetda sun’iy intellekt laboratoriyasi mavjud. Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya, Eronning nufuzli universitetlaridagi qator olimlar bilan aloqa o‘rnatilgan. Sun’iy intellekt va raqamli innovatsiyalar laboratoriyasi (AI & Digital Innovation Lab) ta’lim, ilm-fan va boshqaruv jarayonida sun’iy intellekt yechimlarini ishlab chiqish, talabalar va olimlarni amaliy sun’iy intellekt loyihalarida faol ishtirok etishga jalb qilish, universitetning raqamli transformatsiyasini tezlashtirish kabi vazifalarni bajarib kelmoqda.

Sun’iy intellekt laboratoriyasiga iqtidorli talabalar tanlab olinib, ular bugun 40 kilometr balandlikka sun’iy yo‘ldosh uchirish uchun “O‘zbekkosmos” agentligi, Mudofaa vazirligi bilan hamkorlikda katta loyiha ustida ishlamoqda. Ushbu loyiha taqdimoti shu yil 28-iyunga mo‘ljallangan va sun’iy yo‘ldoshimiz Qoraqalpog‘istonning Mo‘ynoq shaharchasidan uchirilishi rejalashtirilgan.

Talabalar bilimini baholash tizimi to‘liq LMS (Learning Management System) platformasiga o‘tkazilgan. Bu esa baholashning xolisligi va shaffofligini ta’minlaydi. Universitetimizning sirtqi bo‘limi talabasi yiliga ikki marta kelib o‘qishidan tashqari, yil davomida keyingi semestr uchun o‘quv rejada belgilangan fanlarni elektron platforma orqali o‘qib, o‘zlashtirib boradi.

## 4 million dollarlik sarmoya

Bugun universitetimiz dunyoning 50 dan ortiq nufuzli oliy ta’lim muassasaci bilan akademik, ilmiy va madaniy hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. Shundan 13 tasi QS World Ranking TOP-1000 reytingidagi universitetlar. Hamkor oliy ta’lim muassasalari Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Latviya, Niderlandiya, Malayziya, Indoneziya, Turkiya, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston kabi davlatlarning yetakchi muassasalaridir. Jumladan, Indoneziyaning Muhammadiya universiteti bilan 4 million AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritish va tibbiyot yo‘nalishida qo‘shma ta’lim tashkil etish bo‘yicha kelishuv imzolangan. AQSHning LSD logistika kompaniyasi universitetni kadrlar tayyorlash markazi sifatida tanlab, ingliz tilini yaxshi biladigan talabalarni munosib maosh bilan ishga jalb etmoqda.

Shuningdek, Niderlandiyaning Gaaga amaliy fanlar universiteti bilan akademik mobillik dasturi amalga oshirilib, o‘qituvchilar almashinuvi yo‘lga qo‘yilgan. Niderlandiyalik hamkasblarimiz bizda, bizning professorlarimiz Gaaga universitetida dars bermoqda. Ikki yildan buyon talabalarimiz oliy ta’lim talabalari o‘rtasida o‘tkaziladigan matematika olimpiadasida faol qatnashib, vatanimizga kumush, bronza medallar sovg‘a qilmoqda. O‘nlab talabalarimiz sport musobaqalariga tayyorlanib, jahon chempioni bo‘ldi va kontrakt summasidan chegirma huquqini beruvchi vaucherlar bilan taqdirlandi.

Buxoro innovatsiyalar universiteti uzluksiz ta’lim klasterini tashkil etish bilan bog‘liq o‘ziga xos loyihani amalga oshirmoqda. Ushbu klaster tarkibidagi Buxoro innovatsiyalar akademiyasida yoshlarning chet tillar, tabiiy fanlar, robototexnika, AT va sun’iy intellekt sohasidagi bilimlarini oshirish bilan birga hunarmandchilik, tikuvchilik, 3D modellashtirish, milliy hunarlar va ijodiy dizayn bo‘yicha amaliy kasb-hunar ko‘nikmalarini shakllantirish nazarda tutilgan.

Umuman olganda, universitet strategik maqsadlari, innovatsion boshqaruv tizimi va rivojlanish rejalari bilan O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida munosib o‘ringa ega.

Shu o‘rinda qator taklif va tavsiyalarni bildirib o‘tmoqchimiz. Sifatli faoliyat yuritayotgan nodavlat universitetlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha alohida davlat dasturini ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Sifat ko‘rsatkichlari, boshqaruv shaffofligi va bitiruvchilarning mehnat bozorida talabgirligi asosida saralangan oliy ta’lim muassasalarini manzilli qo‘llab-quvvatlash mexanizmini joriy etish zarur. Bunday dastur laboratoriyalar, raqamli infratuzilma, kutubxona resurslari, startap maydonchalari va amaliy tadqiqotlarni tanlov asosida hammoliyalashtirishni nazarda tutadi. Bu yondashuv nodavlat sektorni sifat jihatidan mustahkamlab, uning kadrlar tayyorlashdagi rolini oshiradi.

Nodavlat universitetlar kadrlar salohiyatini rivojlantirish uchun maxsus mexanizmlar yaratishi kerak. Jumladan, stajirovkalar, qo‘shma ilmiy loyihalar, doktorantura grantlari va pedagogik hamda raqamli kompetensiyalarni oshirish dasturlari muhim.

LMS platformalari uchun yagona minimal milliy talablarni belgilash taklif etiladi. Bu elektron kurslar, baholash tizimi, analitika, qayta aloqa va ma’lumotlar xavfsizligini qamrab olishi kerak.

Ta’limda sun’iy intellektdan mas’uliyatli foydalanish bo‘yicha normativ va metodik bazani yaratish zarur. Bu akademik halollikni ta’minlash va ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Barqaror faoliyat yuritayotgan nodavlat universitetlar uchun yangi ta’lim yo‘nalishlarini litsenziyalashni soddalashtirish maqsadga muvofiq. Bu ularning tezkor rivojlanishida qo‘l keladi. Yangi ta’lim yo‘nalishlarini “oldindan ma’qullash” mexanizmini joriy etish orqali universitetlarga o‘z faoliyatini rejalashtirishda qo‘shimcha qulaylik yaratish mumkin.

## 40 yillik tajribam asosi

Ko‘p yillik tajribalarimga asoslanib va ta’lim sifatini oshirishning qanchalik muhimligini anglagan holda ta’kidlab aytmoqchiman: ta’lim muassasasining yangiligi yoki yangi tizimda ishlayotgani unga “xato qilish mumkin, vaqti bilan tuzatiladi” degan vakolatni bermaydi. Chunki biz bugun ta’lim-tarbiya bergan yoshlar tajribamiz ortganida qaytib kelib o‘qimaydi, biz unga bugun diplom beramiz.

Yangi universitetlar tajribali kadrlarni ishga jalb qilishi kerak. Dunyo tajribasini tahlil qila olishi, raqobatbardosh kadr tayyorlash pozitsiyasini mustahkamlashi zarur. Vazirlik, idoralar tomonidan universitetlarga nisbatan davlat, nodavlat degan terminologiyadan voz kechish, barchaga bir xil talab, bir xil imkoniyat va universitetlarni rivojlantirish choralari ko‘rilishi kerak.

Nuqtayi nazar

# KADRLAR VA TEXNOLOGIYA

## ISTIQBOLGA DAXLDOR IKKI YO‘NALISH

**Joriy yil 8-9-iyun kunlari Prezidentimiz huzurida o‘tkazilgan ikki muhim taqdimot yangi O‘zbekistonning yaqin va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan strategik mantig‘ini yana bir bor yaqqol namoyon etdi. Birinchi taqdimotda oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari bandligini ta’minlash, ikkinchisida tog‘-kon sanoati va geologiya sohasiga raqamli texnologiyalar hamda sun’iy intellektni joriy etish masalalari muhokama markazida bo‘ldi. Bir qarashda ikki yig‘ilish butunlay boshqa-boshqadek tuyulishi mumkin. Ammo ularning zamiridagi strategik maqsad bitta — raqobatbardosh milliy iqtisodiyotni qurish va inson kapitalini sifat jihatidan mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish. Davlatimiz rahbarining ushbu yig‘ilishlarda ilgari surgan g‘oyalari zamonaviy taraqqiyot modelimizda yuqori texnologiyalar va inson omili bir-biridan ajralmas tushunchalarga aylanganini ko‘rsatdi.**



**Sunnatilla G‘OYIBNAZAROV,**
**texnika fanlari doktori**

Uzoq yillar davomida oliy ta’lim tizimi faoliyatiga baho berishda quruq raqamlar — talabalar soni, qabul ko‘rsatkichlari yoki berilgan diplomlar miqdori asosiy mezon bo‘lib keldi. Bugun esa davr butunlay o‘zgardi. Davlatimiz rahbari qat’iy ta’kidlaganidek, universitetning haqiqiy bahosi va natijasi uning bitiruvchisi mehnat bozorida qanchalik xaridorgir ekani, qaysi sohada ish kuchiga aylangani va iqtisodiyotga qanday real hissa qo‘shayotgani bilan o‘lchanadi. Bu qarash zamonaviy dunyo tajribasiga ham to‘liq mos keladi. Chunki XXI asrda ta’lim muassasasi nufuzi auditoriyalar soni bilan emas, balki mehnat bozoridagi obro‘si bilan belgilanmoqda. 2026-yilda oliygohlarimizni 320 ming yosh bitirishi kutilmoqda. Bu shunchaki raqam emas, bu mehnat bozori va ta’lim tizimi oldiga qo‘yilgan ulkan mas’uliyatdir. Endi oliygoh faqatgina nazariy bilim ulashuvchi maskan bo‘lib qola olmaydi, u yoshlarning kelajakdagi kasbiy taqdirini loyihalashtiruvchi markazga aylanishi shart. Shu bois, Prezidentimiz tomonidan karyera markazlari faoliyatini tubdan jonlantirish, “Bitiruvchi sifati indeksi”ni joriy etish va dual ta’lim tizimini kengaytirish bo‘yicha belgilangan vazifalar strategik burilish yasaydi. Bitiruvchining ish bilan ta’minlanishiga endi oliygohlar shunchaki qo‘shimcha vazifa sifatida qaray olmaydi. Buni faoliyatini belgilovchi asosiy samaradorlik ko‘rsatkichi deb biladi.

Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasida raqamli texnologiyalar hamda sun’iy intellektni keng joriy etish bo‘yicha belgilangan dasturlar mamlakat iqtisodiyoti yangi texnologik bosqichga o‘tayotganidan dalolat beradi. Raqamlar bu sohaning ahamiyatini yaqqol ko‘rsatadi. Bugun tog‘-kon va geologiya tarmog‘i mamlakat sanoat mahsulotining qariyb beshdan bir qismini ta’minlamoqda. Soha korxonalarining davlat byudjetiga tushumlari o‘nlab trillion so‘mni tashkil etadi. Biroq bugungi maqsad faqatgina yer osti boyliklarini an’anaviy usulda qazib olish bilan cheklanmaydi. Asosiy vazifa xomashyoni intellektual texnologiyalar asosida samarali boshqarish, tannarx va xarajatlarni qisqartirish, eng muhimi, sanoatda xavfsizlikni oliy darajaga ko‘tarishdir. Sun’iy intellekt geologik ma’lumotlarni soniyalarda tahlil qilish, yangi konlarni aniq prognozlash va burg‘ilash ishlarini optimallashtirish imkoniyatini bermoqda. Bu iqtisodiy samaradorlikni karrasiga oshirish bilan birga, konchilikdagi inson omili bilan bog‘liq xatar va avariyalarni keskin kamaytiradi. Ammo eng muhim jihat boshqa — raqamli transformatsiya natijasida sanoatda yangi turdagi ish o‘rinlari paydo bo‘lmoqda.

Ushbu ikki yig‘ilish bir nuqtada — inson kapitaliga investitsiya kiritish g‘oyasida birlashadi. Birinchisida “Qanday kadr tayyorlash kerak?” degan savolga yechim izlangan bo‘lsa, ikkinchisida “Ushbu kadrlar qaysi iqtisodiyot uchun tayyorlanyapti?” degan masalaga aniqlik kiritildi. Javob esa bitta: raqamli iqtisodiyot, innovatsion sanoat va yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi O‘zbekiston uchun. Bu borada asosiy yuk va mas’uliyat texnika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalari, xususan, Toshkent davlat texnika universiteti zimmasiga tushadi. Universitetning geologiya-qidiruv va kon-metallurgiya fakultetidagi ishlar davlatimiz rahbari tashabbuslari bilan to‘liq uyg‘unlashgan.

Bugun fakultetda 3261 talaba tahsil olmoqda. Bu raqamlar ortida shuncha oilaning umidi, shuncha yosh taqdiri va kelajagi uchun universitet zimmasidagi ulkan mas’uliyat yotibdi. O‘tgan o‘quv yilida 10 ta ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘qishni tugatgan 1025 bitiruvchidan 934 nafari doimiy ish bilan ta’minlandi, 65 nafari esa mustaqil tadbirkorlik faoliyatini boshladi. Bandlik darajasi 97,5 foizni tashkil etdi. Bunday ko‘rsatkichga ta’lim jarayoniga geoaxborot tizimlari, 3D modellashtirish va sun’iy intellekt elementlarini shiddat bilan olib kirish orqali erishilmoqda.

Prezidentimiz tomonidan ketma-ket o‘tkazilgan ikki yig‘ilish yangi O‘zbekiston taraqqiyotining bosh formulasini kun tartibiga chiqardi. Raqobatbardosh iqtisodiyotning poydevori raqobatbardosh kadrdir. Bir tomonda mehnat bozorining bugungi shiddatiga dosh beradigan, raqamli texnologiyalarni mukammal egallagan yoshlarni voyaga yetkazish tursa, ikkinchi tomonda ana shu intellektual avlod boshqara oladigan yuqori texnologiyali sanoat muhitini yaratish vazifasi turibdi. Yangi O‘zbekiston aynan mana shu ikki qanot — sifatli ta’lim va raqamli iqtisodiyot orqali yuksalmoqda. Zamonaviy zavodlar qurish, konlarni to‘liq avtomatlashtirish mumkindir. Biroq ushbu temir va texnologiyalarni harakatga keltiradigan, ularga “intellekt” baxsh etadigan yagona kuch insondir. Bugungi islohotlar markazida texnologiya emas, avvalo inson, uning qadri, bilimi va porloq kelajagi turgani boisi ham shunda. Taraqqiyotimizning bundan-da mustahkamroq poydevori bo‘lishi mumkin emas.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

## Mutolaa




**Mustaqillik millat va mamlakat taqdirida eng muhim, eng oliy, eng aziz tuyg‘udir. Xalqimiz bu yil Vatanimiz istiqlolining 35 yilligini nishonlaydi. Men turli davrlarni boshidan kechirgan inson sifatida mustaqillik yillarini shartli ravishda ikkiga ajratgan bo‘lardim. Bu dastlabki 25 yil va keyingi 10 yil. Agar mazkur yillar tarozining pallasiga qo‘yiladigan bo‘lsa, shubhasiz, keyingi 10 yil bosib ketadi. Men bu haqiqatni barcha mas’uliyatni bo‘ynimga olgan holda aytyapman. Fikrimning dalili sifatida Abdusaid Ko‘chimovning “Yuksalish simfoniyasi” kitobini o‘qishni tavsiya etaman.**

# BUYUK ISHLAR E’TIROFI

**Rustam XOLMURODOV,
Samarqand davlat universiteti rektori, O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi, Oliy Majlis Senati a’zosi**



O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Abdusaid Ko‘chimovning mazkur kitobi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 10 yillik mehnatini, mashaqqatini, zahmatini, kurashini, metindek siyosiy irodasini ifoda etuvchi asardir. Unda, eng avvalo, insonlar taqdirini o‘zgartirish, yangilash, odamlarga ishonch berish, umid uyg‘otish, bir so‘z bilan aytganda, xalqimizni rozi qilish yo‘lidagi kurashlar aksini topgan.

Prezidentimiz hududlarga tashriflarida, asosan, oddiy xalq vakillari bilan uchrashib, qalbiga quloq tutadi, ko‘nglini so‘rab, har bir masalani joyida o‘rganadi, muammoga mutasaddilar e’tiborini qaratadi. Bunday ish usuli millat taqdirida tub burilish yasadi. Nazarimda, tarix uchun qisqa bo‘lgan 10 yilda buncha ishni qilishning o‘zi bo‘lmaydi. Buning uchun insonning yuragida Vatan bo‘lishi kerak. U vatanini, vatandoshlarini chin dildan sevishi, yaxshi ko‘rishi kerak.

Bugun yurtimizda islohotlar kirib bormagan biror xonadon, qishloq, tuman, shahar qolgani yo‘q. Taqdiriga ta’sir qilmagan inson ham bo‘lmasa kerak. Hattoki xorijda muhojirlikda yurgan yurtdoshlarimiz muammolariga ham befarq qaralmayapti.

“Yuksalish simfoniyasi”da ta’kidlanganidek, 10-yil davomida O‘zbekiston agrar davlatdan sanoatlashgan mamlakatga aylandi. Mustabid tuzum davrida ham, qolaversa, mustaqilligimizning 25 yilida ham qishloqni sanoatlashtira olmagan edik. Bugun sanoatlashmagan birorta tuman qolmadi.

Kambag‘allar borligini hammamiz bilardik. Lekin bu so‘zni aytishdan, ishlatishdan qo‘rqardik, mumkin ham emasdi. Tarixda birinchi marta kambag‘allar borligini va kambag‘allikka qarshi davlat kurashishi kerakligini Prezidentimiz aytdi.

“Yuksalish simfoniyasi” asari kirish qismida Prezidentimizning quyidagi iqrori keltiriladi: “Xudo menga sog‘liq berib, umr bersa, bizda kambag‘allik va ishsizlik bo‘lmaydi. Nimaga desangiz, bunga men yetti yil umrimni tikdim. Tizim yaratdim, qonun yaratdim, dunyoni ochib berdim. Xalqim yaxshi yashasin, niyatlari amalga oshsin, bolalari baxtli bo‘lsin, nevaralari sog‘lom tug‘ilsin, maktabi ishlasin, yo‘llari ravon bo‘lsin deb ishga keldim”.

Kitob aynan Shavkat Mirziyoyevning xalqimiz farovonligi, yurtimiz tinchligi, mamlakatimiz taraqqiyoti, davlatimiz qudrati borasidagi tarixiy xizmatlariga bag‘ishlangan. Davlatimiz rahbari bizga ham vatanni sevishni o‘rgatdi. Shu ma’noda, “Yuksalish simfoniyasi” vatanparvarlik haqidagi asardir.

Kitobning yana bir muhim jihati, biz shukronalik tuyg‘usini unutib qo‘yayotgandekmiz. Hamma vaqt ham tinchlik, to‘kinlik, yaxshilikning qadriga yetmayapmiz. Xuddi shunday bo‘lishi kerakday qabul qilishga o‘rganib qoldik. Mazkur asar aynan mana shu borada o‘zimizni o‘zgartirish uchun juda zarur .

“Yuksalish simfoniyasi”dagi birinchi maqola Samarqand viloyatiga bag‘ishlangan. Keling, shu o‘rinda viloyatning birgina Urgut tumanida Prezidentimiz amalga oshirgan 3 ta muhim loyihaga e’tibor qarataylik.

Birinchisi, Urgut erkin iqtisodiy zonasi tashkil etildi, ikkinchisi, Urgutda oliy o‘quv yurti ochildi va uchinchisi, Urgutga temir yo‘l qurildi. Tasavvur qilyapsizmi, bundan 10 yil oldin bunday o‘zgarishlarni hatto tasavvur ham qilib bo‘lmasdi. Lekin bugun bular hayot haqiqatiga aylandi.

“Yuksalish simfoniyasi”ning ikkinchi maqolasi bo‘lmish “Avliyolar diyori, alplar yurti — Buxoro!” ko‘hna yurtga, keyingilari — “Janub gavhari” Surxondaryo viloyatiga, “Bu o‘lkada har narsa bordir” Jizzax viloyatiga, “Sahro javohiri” Navoiy viloyatiga bag‘ishlangan.

“Quyosh yurti Xorazm” maqolasi, Qoraqalpog‘istonga bag‘ishlangan “Oppoq ko‘ksi ezgulikka to‘lgan el” yoki Qashqadaryo qalamga olingan “Ulug‘ daryo”, Toshkent viloyatini to‘la-to‘kis ko‘z oldimizda namoyon etgan “Tabarruk tashriflarning totli mevalari” o‘quvchini befarq qoldirmaydi.

“Vodiy durdonasi” (Andijon), “Gullar vodiysi” (Namangan) yoki “Farg‘onaga kelgan turnalar” ko‘ngilga bir yorug‘lik olib kiradi. Sirdaryoga bag‘ishlangan “Qancha shoning bo‘lsa — Vatanni ko‘tar!” maqolasi viloyatda yuz berayotgan inqilobiy o‘zgarishlar haqida.

“Yuksalish simfoniyasi”dan joy olgan “Prezident daraxt ekmoqda” maqolasi qalbimni larzaga soldi. E’tibor bersangiz, bu sarlavhada ramziy ma’no bor. Prezident ekayotgan bu daraxtlar tiriklik daraxtlaridir, kelajak daraxtlaridir, Vatan daraxtlaridir.

Fransuzlarda bunday gap bor: “Imoratlar qurilayotgan bo‘lsa, daraxtlar ekilayotgan bo‘lsa, demak, hammasi joyida”.

Men shu o‘rinda mazkur asar loyihasi rahbari va so‘zboshi muallifi, taniqli siyosatshunos Qudratilla Rafiqovning mehnatlarini ham alohida e’tirof etishni istardim.

Abdusaid Ko‘chimov ulkan, mashaqqatli yumushni bo‘yniga oldi va bajardi. Bu — Vatan oldidagi burch, Vatan sevgisi, buyuk ishlarning e’tirofidir.




## Iftixor

# EL-YURT DUOSI

**To‘pni o‘nglab, qiya tep!
To‘rga joylab qo‘ya tep!
“O‘zbekni ko‘r! O‘zbek zo‘r!
O‘zbekiston!” deya tep!**

**Dunyo shunday keng bo‘lsin,
Hakam ko‘zi o‘ng bo‘lsin.
Yutgin-u, yutqizmagin!
Boshing tog‘dek cho‘ng bo‘lsin!**

**O‘ngdan keladi hamla,
Chapdan keladi hamla.
Qaytar, hamlani qaytar,
Aqlu kuchingni jamla!**

**Bolam, oq bo‘lsin yo‘ling,
Boshing tik, baland qo‘ling.
Xudoyim, kuch, omad ber,
Bandangman – sevgan quling!**

**Bolam, ko‘zimning nuri,
Sen bo‘risan, bo‘z bo‘ri.
Birlashgan kuch, bir gala
Jamoaning eng zo‘ri.**

**Turkiysan, zoting bo‘ri,
Jamoang, oting bo‘ri.
Alpomishning otasi
Bo‘ri, Bo‘ri, Boybo‘ri!**

**Darvoza bo‘sh – ochiq qop,
To‘pni oshir, chop-ha, chop!
Maydon bo‘ylab hujum qil,
Gol urishga usul top!**

**O‘ng oyog‘ing o‘ngaqay,
Chap oyog‘ing chapaqay.
O‘ngdan, chapdan yorib o‘t,
To‘pni tovlab chopag‘ay!**

**Osmon keng, cheksiz xayol,
Hayotning o‘zi futbol.
Falak quyoshni o‘ynab,
Ufqqa uradi gol.**

**Oftob yumaloq koptok,
Koptok yumaloq oftob.
Oftob koptok yumaloq,
Yumaloq koptok oftob.**

**Beruniy topgan bashar,
Yer yumaloq, ulkan shar.
To‘p o‘xshar yer shariga,
Yer shari to‘pga o‘xshar.**

**G‘alaba qozon, o‘g‘lon,
G‘alaba emas oson.
Yer-u ko‘kni boshqarar
Xorazmiy kashf etgan son.**

**Yuzma-yuz ikki ochun,
Oq va qora kun-u tun.
G‘alaba qilmoq kerak
Xalq uchun, Vatan uchun.**

**Yurakka g‘am soldirma!
Maydonni bo‘sh qoldirma!
Raqibga to‘pni berma,
Yer sharini oldirma!**

**Amir Temurdek yo‘l tut,
Qanotlardan yengib o‘t!
Duch kelgan jamoani
Hisob-kitob bilan yut!**

**Beruniyning ilmi hol
Kolumbdan o‘zgan misol
O‘zbekiston tepgan to‘p
Amriqoda bo‘lar gol.**

**Bir, ikki, uch... Yana shans –
Uchinchi Renessans.
Ikki Renessans yutdik,
Bu uchinchi seans.**

**Osmon o‘zbekning ori,
Dunyoning iftixori.
Ilg‘or jamoa tuzdi
Yangi zamon me’mori.**

**Vatan so‘zini yod et,
Yut, yutaver ketma-ket!
El-yurt duosin oqlab,
Iloho, murodga yet!**

**Rustam MUSURMON,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi,
Qoraqalpog‘iston xalq shoiri**



# YELKADA VATAN SHA’NI

## muxlislar munosib o‘yin, chiroyli g‘alaba va gollar kutmoqda

### Umidbaxsh debyut

**Ko‘p millatli va ko‘p millionli xalqimiz orasida futbolni sevadigan, uning sehrli olamiga oshno tutinganlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. AQSH, Meksika va Kanada yashil maydonlarida start olgan jahon birinchiligi sportning ushbu turiga qiziqmaydigan yurtdoshlarimizning ham halovatini olib qo‘ydi. O‘z tarixida ilk bor jahon chempionati final bosqichiga yo‘llanma olgan O‘zbekiston milliy terma jamoasi Markaziy Osiyodan mundialda qatnashayotgan birinchi davlatga aylandi.**

Shu bois, hozir mamlakatimiz aholisidan tashqari uzoq-yaqin qo‘shnilarimiz ham jamoamiz muxlisiga aylangan. Bugun matbuot va ijtimoiy tarmoq sahifalari ko‘chalarda O‘zbekiston bayrog‘ini hilpiratib, liboslariga futbolchilarimiz ismini tushirib olgan, mundialni tomosha qilish uchun turli davlatlardan yig‘ilgan muxlislarning foto va videolari bilan to‘lib-toshdi.



Jahon birinchiliklari 1982-yili Ispaniya mezbonlik qilgan bahslardan boshlab 1 oy (28-31 kun) davom etayotgan edi. Ungacha musobaqalar 2 yoki 3 hafta mobaynida o‘tkazilgan. FIFA ishtirokchilar sonini 48 taga yetkazgani sababli uch davlat qabul qilayotgan bu galgi musobaqalar eng uzoq (38 kun) davom etadigan mundial sifatida tarixdan joy olish arafasida.

O‘zbekiston milliy terma jamoasi xalqaro maydonda katta e’tibor va e’tiroflar bilan JCH-2026 bahslariga kirishmoqda. FIFA O‘zbekistonning ilk bor jahon chempionatiga chiqqanini nafaqat mamlakat, balki butun Markaziy Osiyo futboli uchun tarixiy voqea deb ta’rifladi. Tashkilot rasmiy saytida “oq bo‘rilarning orzusi ushalgani” urg‘ulanib, jamoaning ko‘p yillik sa’y-harakatlardan keyin mundialga chiqqani alohida yoritildi.

FIFA prezidenti O‘zbekiston rahbariyati va xalqini tarixiy voqelik bilan tabriklab, munosib yutuqqa hissa qo‘shgan futbolchi, murabbiy, federatsiya va muxlislarning ishonchi hamda intilishlarini yuqori baholadi.

Qator xalqaro nashrlar O‘zbekistonni JCH-2026 ning muxlislarda katta qiziqish uyg‘otayotgan debyutanti sifatida tilga olmoqda, termamizning ko‘p yillik dramatik saralashlardan keyin maqsadga erishganini katta hurmat bilan qabul qilmoqda.

Mutaxassislar milliy termamizni favoritlar qatoriga kiritmayotgan bo‘lsa-da, intizomli o‘yini, yosh iqtidorlari va intiluvchanligi tufayli guruh bosqichida syurpriz qilishi mumkin bo‘lgan jamoa sifatida baholagan.

— O‘zbekistonliklarning jahon chempionatiga tarixiy yo‘llanmasi ko‘plab ekspertlar tomonidan mamlakatda so‘nggi yillarda qilingan tizimli ishlarning mantiqiy natijasi sifatida baholanmoqda, — deydi Qozog‘iston Professional futbolchilar uyushmasi boshqaruvi raisi Oljas Abrayev. — Bu mutlaqo qonuniy natija. Qo‘shnilarimizda rivojlanish strategiyasi bor va ular unga izchil amal qilmoqda. Barcha qadamlar mamlakat futbolida tizimli rivojlanishga qaratilgan bo‘lib, mantiqiy va puxta o‘ylangan.

Ekspertning ta’kidlashicha, so‘nggi yillarda mamlakatda infratuzilma va bolalar-o‘smirlar futboli faol rivojlantirilgan: “Aynan shu ishlar o‘z samarasini bera boshladi. O‘zbekiston yoshlar jamoalari xalqaro maydonda muntazam jiddiy muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Masalan, 17 va 20 yoshgacha bo‘lgan terma jamoalar so‘nggi yillar jahon chempionatlarining final bosqichlarida ishtirok etib kelyapti”.

O‘zbekiston milliy terma jamoasi hali turnirga kirishmay turib, muhim rekordlar qayd eta boshladi. Ma’lumki, Fabio Kannavaro boshchiligidagi jamoamiz tarixiy ilk uchrashuvini 18-iyun kuni Kolumbiya terma jamoasiga qarshi o‘tkazadi. 11-iyun holatiga O‘zbekiston — Kolumbiya uchrashuviga sotilgan chiptalar soni 74 ming 725 tani tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich hozircha 2026-yilgi jahon chempionati uchun sotilgan chiptalar soni bo‘yicha mutlaq rekord sifatida qayd etilmoqda. Masalan, bu raqam ochilish bahsi Meksika — Janubiy Afrika (73 ming 373) va Braziliya — Marokash (73 ming 719) uchrashuvlarinikidan ham yuqori.

Eslatib o‘tamiz: jahon chempionati guruh bosqichida O‘zbekiston “K” guruhidan joy olgan. Futbolchilarimiz 18-iyun kuni Toshkent vaqti bilan soat 7:00 da Kolumbiya terma jamoasiga qarshi birinchi uchrashuvini o‘tkazadi. Ikkinchi turdan o‘rin olgan uchrashuv 23-iyun kuni soat 22:00 ga belgilangan. Unda milliy terma jamoamiz Portugaliya bilan kuch sinashadi. Guruhdagi oxirgi bahs 28-iyun soat 4:30 da Kongo Demokratik Respublikasi futbolchilariga qarshi o‘tkaziladi.

### Hayajonga to‘la lahzalar

11-iyun tun oqshomida JCH-2026 musobaqalarining tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Muxlislar uchun katta sahna effektlari, pirotexnika, qo‘shiq va raqsli chiqishlar namoyish etildi. Stadion uzra ishtirokchi mamlakatlarning davlat bayroqlari birma-bir olib kirilayotgan lahzalar o‘zbekistonlik muxlislarni hayajonga solgan eng yorqin epizodlardan biri bo‘ldi.

— Millionlab yurtdoshlarimiz jonajon Vatanimiz bayrog‘ini o‘yingohga hilpirab kirib kelishini baxtiyorlik, hayajon va quvonch yoshlari bilan kutib oldi, — deydi ustoz jurnalist Haydar Akbarov. — Faoliyatimning katta qismini sport jurnalistikasiga bag‘ishlaganman. O‘z vaqtida “Sport” gazetasi huzurida maxsus “O‘zbekiston futboli” haftalik ilovasiga asos solgan edik. Tahririyatimiz ijodkorlari uchun milliy termamizning jahon birinchiligida ishtirok etishi va bu jarayonlarni quvonch hamda faxr bilan yoritish orzumiz armonga aylandi. Bugun kutilgan baxtiyor kunlarga yetib keldik.

Mundialning dastlabki uchrashuvi Mexikodagi “Asteka” stadionida bo‘lib o‘tdi. Unda Meksika terma jamoasi JARni 2:0 hisobida mag‘lub etdi. Kinones 9-daqiqada hisobni ochdi. 67-daqiqada Raul Ximenes yakuniy nuqtani qo‘ydi. “A” guruhining ikkinchi o‘yinida Janubiy Koreya termasi Chexiya bilan kuch sinashdi. Unda osiyoliklar 2:1 hisobida zafar quchdi.

Statistikaga qiziquvchilar uchun bir ma’lumot: JCH-2026 dastlabki turning ilk uchrashuvidan so‘ng qizil kartochkalar borasida to‘rt yil avval Qatarda o‘tgan mundialga deyarli tenglashib oldi. 2022-yildagi jahon chempionatida 64 uchrashuvda 4 ta qizil kartochka ko‘rsatilgan edi. Bu safar esa birinchi bahsning o‘zida 3 ta chetlatilish... Oldinda bizni yanada qiziqarli o‘yinlar kutmoqda. Demak, uchrashuv hakamlari oldiga murosasiz bo‘lish, har bir qoidabuzarlik uchun jiddiy jazo tayinlash vazifasi qo‘yilgan deya taxmin qilishga asoslarimiz yetarli.

### Darvoqe, hakamlar haqida

Istaymizmi-yo‘qmi, shu paytgacha Ravshan Ermatov o‘zbek, qolaversa, mintaqa futbolining yuzi bo‘lgan. Hozir ham buni sharaf bilan a’lo darajada uddalamoqda. Avvaliga jahon chempionatlari tarixida eng ko‘p o‘yin boshqargan bosh hakam sifatida rekord o‘rnatgan bo‘lsa, ayni paytda mamlakatimiz futbolini xalqaro arenalarda rivojlantirish, targ‘ib qilishdek mas’uliyatni zimmasiga olgan.

Jahon chempionatlarining final bosqichlarida jami 11 ta uchrashuvda maydonga tushgan va hozircha hech bir hakam bu ko‘rsatkichni yangilash imkoniga ega emas. U 2010-yil bosh hakam sifatida JAR maydonlarida 5 ta, 2014-yil Braziliyada 4 ta va Rossiyada (2018-yil) 2 ta o‘yinni mahorat bilan boshqargan. Natijada millionlab muxlislar mehri hamda e’tirofiga sazovor bo‘lgan. 2014-yil mundialida Ravshan Ermatov 32 yoshda edi va unga mezbon — Janubiy Afrika Respublikasi ishtirokidagi ochilish uchrashuvi ishonib topshirilgan. Yurtdoshimiz, shuningdek, Osiyo qit’asida ketma-ket to‘rt marta “Eng yaxshi hakam” deya e’tirof etilgan yagona mutaxassis.

2022-yili Qatardagi jahon birinchiligi mamlakatimiz hakamlari ishtirokisiz o‘tgan edi. Qisqa tanaffusdan so‘ng, mana yana o‘zbekistonlik hakamlar jamoasi uch davlatda kechayotgan bir nechta bahslarni boshqarish arafasida turibdi. Okean ortida muxlislar Ilgiz Tantashev, Andrey Sapenko va Timur Gaynullin mahoratiga guvoh bo‘lishi mumkin.

Hujjatlarda Ilgiz Tantashev bosh hakam sifatida, Andrey Sapenko va Timur Gaynullin esa yordamchi hakam sifatida qayd etilgan. Futbol ishqibozlari Ilgiz Tantashev O‘zbekistonda 2025-yilning eng yaxshi hakami deb topilgani, klublar o‘rtasidagi jahon chempionati uchrashuvlarini boshqargani, xalqaro musobaqalarda faoliyat yuritayotganidan xabari bor.

* * *

Oldinda millionlarning umid ko‘zi qadalgan futbol bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi va o‘zbekistonlik hakamlar brigadasi ishtirokidagi o‘yinlar bizni kutyapti. Yelkasida vatan sha’nini ko‘tarib turgan yigitlarga omad tilaymiz. Ehtimol, ulardan medal va sovrinli o‘rinlarni kutish, talab qilishga hali ertaroqdir, ammo munosib o‘yin, chiroyli g‘alaba va gollar kutib qolishga haqlimiz.

**Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:
**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
**Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — G-646.
30166 nusxada bosildi.
**Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Avazbek Xudoyqulov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05